

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKULTETI

TARIX KAFEDRASI

Fakultet dekani:

Ochilov O'.S.

Kafedra mudiri:

Rahmonov K.J.

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Mavzu: “Beruniy va ijtimoiy fanlar”

**5120300- Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) bakalavr darajasini
olish uchun**

Tarix ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi:

Ergashev Umidjon To'ymurod o'g'

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi

Jumayeva N.A.

Buxoro – 2016

Mundarija:

Kirish..... 3 -6.

I BOB. Beruniyning hayoti va ilmiy faoliyati xususida

I.1. Beruniyning hayot yo'li.....	7 -16.
I.2. Abu Rayhon Beruniy asarlariga umumiy tasnif.....	17 -27.

II.BOB. Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy qarashlari

II.1. Yunon olimlari va allomaning falsafiy qarashlari.....	28 – 34.
II.2.Beruniy asarlarida shaxs va jamiyat muammolarining yoritilishi	35 – 41.
II.3.Beruniy va tarix fani.....	42 – 50.

Xulosa	51 – 54.
---------------------	-----------------

Ilovalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	55 – 56.
--	-----------------

KIRISH

O'zbekiston mustaqil bo'lgandan so'ng xalqimiz ijtimoiy taraqqiyotida katta burilish yasaldi. Shu munosabat bilan respublikamizning nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotida, balki ma'naviy hayotida ham keskin yangilanish jarayoni ro'y bermoqda. Bu yangilanishda milliylikka, tariximizga, boy madaniy

merosimizga qiziqish, uni keng, har tomonlama ilmiy va haqqoniy o'rganishga intilishning kuchaya borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon ma'naviyatimizning turli sohalari, jumladan ijtimoiy fanlarni o'rganishda ham o'zining yorqin ifodasini topmoqda.

Ma'naviyatning ajralmas tarkibiy qismi bu milliy tuyg'udir. Milliy tuyg'u – insonning o'zi mansub bo'lgan millatning tarixi, xususiyatlari, ruhiyati, hozirgi ahvoli va qadriyatlarini tug'ma, hissiy anglashidir. Insonda milliy ong, tuyg'u va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, bunday inson o'zga millatlarning ham qadr-qimmatini anglab yetmaydi, unda tarbiyaning vatanparvarlik, jasorat, ishonch kabi shakllarini qaror toptirish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'biri bilan aytganda, “Xalqimizning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljishda hal qiluvchi..., belgilovchi ahamiyatga ega”¹.deb ta'kidlab o'tadi. Shuning uchun ham Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab Xalqimizning boy Tarixiy-Madaniy o'tmishini qayta tiklashga, Ajdodlarimizning Ilmiy – Ma'naviy merosini o'rganishga juda katta e'tibor berildi. Buning isboti sifatida Shaharlar va Tarixiy shaxslarning yubeleylarini keng miqyosda nishonlanishi, Buyuk allomalarimizning asarlarini qayta nashr etilishi va bu nashrlarning kamunnistik mafkura bo'yoqlaridan holi bo'lishi alohida ahamiyatga ega voqealar hisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'tmishda ajdodlar tomonidan qoldirilgan milliy meros haqida fikr yuritar ekan: “Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbayiga aylanmoqda”² deb ta'kidlab o'tadi.

Mavzuning dolzarbligi: O'rta asrlar uyg'onish davrida ilmiy ijod qilgan O'rta Osiyolik mutafakkirlar: Abu Abdulloh Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr

¹ Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. «Ўзбекистон».1996. – Б. 273.

² Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. Т. «Маънавият». 2008 –Б. 84.

Farobiy, Ahmad Al Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino kabi Abu Rayhon Beruniy ham o'z asarlarini arab tilida yozganligi tufayli ko'pgina g'arb olimlari tomonidan Abu Rayhon Beruniy va yuqoridagi allomalarni Arab olimlari deb xatto atab kelindi. Aslida ularning barchasi O'zbekiston tuprog'ida tug'ulib ilk boshlang'ich talimni shu yerda olgan, va shu zaminda voyaga yetgan, keyinchalik esa taqdir taqazosi bilan boshqa o'lkalarga ketib qolgan o'zbek olimlari hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy kechmishiga baho berib, Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagicha yozgandilar: "Milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Jorj Sarton XI asrni "Beruniy asri" deb ta'riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo'lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasi bilan izohlanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Beruniy ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqea-hodisalarga, o'z zamondoshlariga baho berishda ham o'ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko'p aziyatlar chekkan, xatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo'lgan, ammo har qanday og'ir sharoitga qaramasdan, e'tiqodidan qaytmagani uning o'z ma'naviy ideallariga naqadar sodiq bo'lganidan dalolat beradi³.

Mavzuning o'rganilish darajasi: Beruniyning hayoti va ijodini o'rganish sohasidagi tadqiqot ishlari fanning alohida bir tarmog'i – beruniyshunoslikni yuzaga keltirdi. Bu masalaning ko'p taraflari rus va sovet sharqshunos olimlari – V. V.Bartold⁴, I.Y.Krachkovskiy⁵, A.A.Semyonov⁶, S.P.Tolstov⁷, I.M.Mo'minov⁸, P.G.Bulgakov⁹, X.Sodiqov¹⁰, V.Y.Zohidov¹¹, I.Abdullayevlar¹² tomonidan yoritilgan. Beruniy hayoti va ijodini o'rganishda chet el olimlaridan K.E.Zaxau¹³,

³ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т. «Маънавият». 2008 –Б. 152.

⁴ Бартольд. В. В. Туркестан, Том I, М. 1927. –С. 337-338.

⁵ Крачковский. И. Ю. Арабская географическая литература. Том, IV, М. 1958. –С. 244-262.

⁶ Семенов. А.А. Ал-Бируни – величайших учении средневекового Востока и Запада. М. 1938. –С. 106-116.

⁷ Толстов. С.П. Бируни и его время. М. 1948. –С. 3-21.

⁸ Мўминов. И. М. Абу Райхон Беруний – буюк энциклопедист олим. Т. 1973. –Б. 3.

⁹ Булгаков. П. Г. Жизнь и труды Беруни. М. 1972. –С. 368-390.

¹⁰ Садыков. Х. У. Бируни и его работы. Т. 1950. –С. 3-36.

¹¹ Захидов. В. Бируни как мыслитель. М. 1950. –С. 30-54.

¹² Абдуллаев. И. Сўзбоши. Беруний. Ёдгорликлар, Т. 1968. –Б. 5-20.

¹³ Chronologie, Einleitung. W. 1959. –S. 23.

R.Rayt¹⁴, M.Mayerxof¹⁵, M.Faruq¹⁶, A.Z.To'g'on¹⁷ salmoqli hissa qo'shgan. Mamlakatimiz mustaqillika erishgandan so'ng beruniyshunoslikda yangi bosqichga o'tildi. Olimlarimizdan U.Uvatov¹⁸, N.Komilov¹⁹, H.Hasanov²⁰ kabi bir qator olimlar mustaqil tadqiqotlar olib borishdi.

Darhaqiqat, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning deyarli barcha sohalari, shu jumladan, tarix ilmi bilan ham maxsus shug'ullanib juda boy meros qoldirgan. Uning ilm-fan, madaniyat, din, falsafa, tabiiy fanlar, riyoziyot, ilmi hay'at, ilmi nujum, geodeziya, xaritashunoslik, tibbiyot, dorishunoslik, ma'danshunoslik va boshqa sohalarda qoldirgan ilmiy va tarixiy asarlari olim yashagan X—XI asrlarda ham, keyingi davrlarda ham O'rta va Yaqin Sharqda, ayniqsa, E. Zaxau tadqiqotlaridan so'ng G'arb ilm-fani, tarix fani rivojiga behad salmoqli va samarali ta'sir ko'rsatdi. Beruniyning „Hindiston— asarining ilmiy va manbaviy ahamiyati xususida mashhur rus sharqshunosi baron V.E. Rozen „Bu hindistonshunoslikda shunday bir ulug'vor haykalki, u o'z sirasiga ko'ra yakka-yu yagona va unga teng kelishi mumkin bo'lgan boshqa bir asarni G'arb va Sharqning butun qadimgi va O'rta asr ilmiy adabiyotlarida ham uchratish mumkin emas”²¹, deb yozgan edi. Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shganligi olimlar tomonidan talqin qilingan.

Maqsad va vazifalar: Malakaviy ishi ustida ishlashni boshlagan vaqtda va o'rganish jarayonida mavzuni ilmiy tahlil qilishda quyidagi maqsadlarni belgilab oldik:

- Olimning hayot yo'li va ijtimoiy muhitning unga ta'sirini o'rganish;
- Fanning turli sohalariga oid tadqiqotlarda olimning qarashlarini yoritish;
- Beruniyning falsafiy va diniy ta'limotlarga nisbatan yondashuvlarini tahlil qilish;

¹⁴Rayt .R .The elements of the art of astrology preface. L. 1982. —S. 67.

¹⁵ Meyerhof .M. Vorwort. L. 1982. —S. 38.

¹⁶ Farooq. M. Al — Kanun Al Mas'udi. M. 1973 —C. 88-90.

¹⁷ Togan.A. Beruni's picture of the world. Istanbul. 1965. —S. 23.

¹⁸ Uvatov.U. Donolardan saboqlar. T. “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti” 1994. —B. 15-18.

¹⁹ Komilov. N. Tafakkur karvonlari. T. 1999. —B. 75-77.

²⁰ Hasanov. H. Sayyoh olimlar. T. “O'zbekiston” 2012. —B. 33-35.

²¹ Барон В.Е. Розень. Рецензия на издание арабского текста „Индия, - ЗВОЮ, том, III. 1881.—С.147

- Tarixiy bilimlarning alloma asarlarida yoritilish darajasini o'rganish.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- X – XI asrlarda siyosiy jarayonlar, ilmiy muhit va Beruniyning ensklopedist olim sifatida shakllanishi;
- Beruniy asarlari xususida umumiy xulosa berish;
- Beruniy va uning yunon-hind falsafasiga bo'lgan munosabati;
- Abu Rayhon Beruniyning Tarix oldidagi xizmatlarini tahlil qilish;

Mavzuning amaliy ahamiyati: Ijtimoiy – gumanitar yo'nalishda ta'lim berayotgan va ta'lim olayotgan o'qtuvchilar va o'quvchilar uchun, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litsey darsliklarida kiritilgan IX- XII asrlarda O'rta Osiyoda fan va madaniyat mavzusiga qo'shimcha yangi ma'lumot sifatida qo'llash mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining xronologik doirasi: Mazkur bitiruv malakaviy ishining xronologik chegarasi X- XI asrlarni o'z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzulishi: Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 bob, 5 paragraf, xulosa, mavzuga mos ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat, bo'lib 56 sahifadan tashkil topgan.

I BOB. BERUNIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI XUSUSIDA

I.1. BERUNIYNING HAYOT YO'LI

O'rta asrlarning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad al-Beruniy o'z zamonasining hamma fanlarini – Fizika, Matematika, Astronomiya, Adabiyot, Jug'rofiya, va boshqa Tabiiy –Tarixiy fanlarni chuqur egallagan shaxsgina bo'lib qolmay, o'z davrida Xorazmning ko'zga ko'ringan siyosiy arboblardan biri ham edi. Beruniy to'g'risida uning hayoti, ijodi, asarlari va talimotiga bag'ishlab xorijiy tillarda mingdan ortiq maqola va yirik managrafiyalar, tadqiqotlar yozilgan²².

Sharqshunos va tarixchi olim B.V.Lunin Sovet davrida Rus va o'zbek tillarida Abu Rayhon Beruniyga bag'ishlab nashr etilgan 300 tacha kitob va maqolalarning ro'yxatini tuzgan. Beruniy hijriy 362 yili 3-zulhijjada (milodiy 973-yili 9-sentabr) Xorazmning qadimgi Kot shahrida tug'uladi. Bu ma'lumot birinchi Beruniyshunos olim Ibrohim ibn Muhammad G'azanfarning Beruniy 1036-yil 25-sentabrigacha yozgan asarlariga o'zi tuzgan Fixristining bir nusxasiga qilgan qo'shimchasidan olingan bo'lib, al G'azanfarning o'zi bu ma'lumotni qayerdan olganligi haqida hech qanday guvohlik bermaydi. Lekin baxtimizga "Giyodeziya"ni Anqarada nashr qilgan turk olimi Muhaammad ibn Tovit at Tanjiy Beruniyning "Maqola fi hikoyat tariq ahl al Hind fi istixroj al – umr" risolasining nodir qo'lyozmasini topib, unda olimning tug'ilgan kuni va joyi haqida o'zi keltirgan quyidagi jummalarni topgan. " Mening tug'ilgan vaqtim Xorazm shahrida yuz bergan bo'lib,... tug'ilishim hijriy 362 yilning uchinchi zulhijjasi – payshanba kuniga to'g'ri kelgan". Aftidan al- G'azanfarning ma'lumoti ham shu jumlalarga asoslangan. Kot shahri X asrda Xorazmshohlar – Afrig'iylar sulolasining poytaxti va O'rta Osiyoning eng yirik savdo markazlaridan biri edi.

Xorazm bilan Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq davlatlari, Kavkaz va Sharqiy Yevropa o'rtasida savdo – sotiq va madaniy aloqalar rivojlangan bo'lib, Xorazm savdogarlari asosan mo'yna, qoramol, va baliq bilan savdo qilib, uzoq–uzoqlarga safarga chiqardilar. Xorazm shaharlarida hunarmandchilik (to'quvchilik, kulolchilik, zargarlik kabilar) taraqqiy etgan bo'lib, bu shaharlarda ilm fanning rivojlanishiga ham barakali ta'sirini ko'rsatdi.

²² Хасанов, Х. Сайёҳ олимлар, Т. «Ўзбекистон». 1981. –Б. 47.

Kot shahriga Sharq mamlakatlaridan, shuningdek, Sharqiy Yevropadan kelgan turli xalqlar, hatto rumliklar va suriyaliklar ham to'plangan edi. Zamondoshi Ibn Sino kabi Beruniyning mufasssal tarjimai holi yozib qoldirilmagan. Olimning nasl – nasabini uning nisbasiga qarab aniqlasak (Berun yoki birun so'zi Tashqari, Shahar Tashqarisi Beruniy esa Shahardan Tashqarida yashovchi kishi ma'nosini bildiradi.), olim shaharda emas shahardan chetroqdagi bir qishloqda tug'ilgani va shu yerda yoshlik chog'larini o'tkazgani ma'lum bo'ladi. O'rta Osiyoning mashhur olimlaridan Abdulkarim as-Sam'oniy o'zining “kitob al ansob” (nasablar kitobi) nomli asarida bunday yozadi: Beruniy degan nisba Xorazmning (bu yerda Kot shahri nazarda tutilgan) tashqari qismiga oiddir kimki shahardan tashqarida tug'ilgan bo'lsa bunday odamni “falonchi beruniy” deyдилar. Munajjim Abu Rayhon shunday nisba bilan mashhurdir²³. Hind olimi Nadaviy “Taboqat ul itbo” kitobida bunday deydi: Berun Sind (Pokiston) dagi bir shaharning nomidir va “Beruniy shu shaharga nisbatdir” deb yozgan. Shahrizuriyning (XIII asr boshi) “Axbor al hukamosida” ham shunday deyilgan. Lekin bu noto'g'ri, Sindda Berun degan shahar yo'q, Nirun degan shahar bor. Ibn Havqalning “kitob al masolik” asarining bir eski nusxasida Sindning eski xaritasi bor. O'shanda Nirunning qayerda joylashganligi bayon etilgan. Nirunni olimlar yanglishib Birun deb o'qigan bo'lishi mumkin. (arab imlosida “N” bilan “B” harflari faqat bitta nuqta bilan farq qiladi.) va Abu Rayhonni shu nom bilan bog'lagandir.

XIII asr boshida yashagan mashhur sayyoh va geograf Yoqut Hamaviy o'zining “Irshod al-arib ilo ma'rifat al adib” kitobida Beruniyning Abu-l-Hasan degan noma'lum shaxsga qarata yozgan she'rini keltiradi. Bunda olim bobosi va otasini bilmasligi, onasi esa “o'tin tashuvchi” bo'lganligini eslatib o'tadi. Uning kunyasi “Abu Rayhon” (“Rayhonning otasi” yoki “Rayhonli kishi”) haqida aniq bir fikr aytish qiyin. I.Y.Krachkovskiy (1883-1951) bu atoqli ot ma'nosini

²³ Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан»1968 –Б. 8.

anglatishi ehtimoldan uzoq, ammo “rayhonli kishi” ma’nosida laqab bo’lib kelgan bo’lsa kerak, deydi.

Bu uning homiysi – Rayhona xonimning ismidan olingandir²⁴. Beruniy yoshligidan botanikaga qiziqgani uchun shunday laqab berilgan bo’lishi ham mumkin. Beruniy ko’pincha “ustod” yoki “Abu Rayhon” deb qisqagina, ammo zo’r ehtirom bilan tilga olingan. Olimning G’aznada turgan zamondoshi tarixchi Abulfazl Bayhaqiy “Tarixi Bayhaqiy” kitobida biror marta “Beruniy” demaydi doimo “Abu Rayhon” deb yozadi.

U G’arbiy Yevropada Aliboron nomi bilan mashhur bo’lgan. Beruniyshunos Ubaydulla Karimov bu masalarga shunday yakun yasadi: uning ismi Muhammad otasining ismi Ahmad, Beruniy esa uning nisbasi, ya’ni kelib chiqishi va nasl nasabini bildiruvchi so’zdir. Beruniy forscha Berun (tashqari) so’zidan olingan bo’lib “shahar tashqarisida tugilgan” yoki “o’sha yerda yashovchi” degan ma’noni anglatadi. Abu Rayhon esa uning laqabi bo’lib, arab tilida “Rayhon otasi” yoki “Rayhonli kishi” degan ma’nolarni anglatadi. Bundan tashqari Rayhon so’zi arabchada “Rahmat” “Rizq” degan ma’nolarni ham bildiradi, shu nuqtai nazardan qaralsa, Abu Rayhon “Marhamatli” “Rahmdil” degan mazmunni ham bildiradi²⁵.

Abu Rayhon Beruniyning fe’l atvori, kishilar bilan muomilasi, tirikchiligi to’g’risida yetarli ma’lumotlarga egamiz, lekin uning qiyofasi portretetiga oid malumotlar juda kam. O’z zamonasidan miniatura ham qolmagan. Ammo tarixda bir xotira bor Olim Shahrizuriy uning ko’rinishi - qaddi-qomati, chehrasi to’g’risida odamlardan eshitganlarini yozib qoldirgan: “U qizilmag’iz, oppoq uzun soqolli, past bo’yli, qorni katta odam edi”,- deydi tarixchi Shahrizuriy. Eronda eng ko’p tarqalgan partret eronlik rassom Bozorgo’yin chizgan suratdir. Yurtimizda esa Abu Rayhon Beruniy tavalludining ming yilligiga bag’ishlab Malik Nabiyeov chizgan surat ommalashgan.

²⁴ Ҳасанов, Ҳ. Сайёҳ олимлар. Т. «Ўзбекистон». 1981.–Б. 48

²⁵ Ҳасанов, Ҳ. Кўрсатилган асар. –Б.52

X asrning ikkinchi yarmi va XI asr Xorazmda ilm ma'rifat nihoyatda rivojlangan bir davr edi. Bir tomondan Xorazmda "Avesto" g'oyalari va zardushtiylik dini bilan bog'langan qadimiy ilmlar ravnaq topgan bo'lsa, Qadimgi Yunonistondan kelgan falsafiy ta'limotlar, Erondan kelgan majusiylilik, kohinlik ananalari isaviylik, musaviylik kushonlar davrida tarqalgan buddaviylik va nihoyat islom dini va madaniyati xalqning ma'naviy dunyosiga ta'sir qilgan edi. Ayniqsa, arab olimlarining ta'limotlari, Qur'oni karim va hadislariga asoslangan g'oyalar keng tarqalgandi. Shunday bir sintetik madaniyatlar sharoitida xalqning ilg'or ziyoliylari turli tillarni egallashga intilishgan. Beruniy ham qadimgi xorazm tilidan tashqari, arab, so'g'diy, fors, yunon, suryoniy, va qadimiy yahudiy tillarini puxta bilgan va shu tillarda yozilgan adabiyotlarni o'qiy olgan. Keyinchalik Mahmud G'aznaviy bilan Hindistonga borganida Sanskrit tilini ham o'rganib olgan²⁶.

Abu Rayhon o'z shahrida va Xorazmning boshqa shaharlarida bo'lib, mahalliy maktablar va mashhur ustozlardan ta'lim olgan. Beruniyning yoshligidagi birinchi ustози, mashhur olim Fazoviy trigonometriya asoschisi deb tan olingan o'zining matematika va astronomiya sohasidagi kashfiyotlari bilan shuhrat qozongan buyuk alloma Abu Nasr Iroq bo'lgan. Zamondoshlari uni haqli ravishda Ikkinchi Ptolamey deb ataganlar.²⁷ Uning to'liq ismi Abu Nasr ibn Iroq Mansur ibn Alidir. (vaf.1036). Beruniy bu ustozini ko'pgina asarlarida hurmat bilan tilga oladi. Ibn Iroqning ham Beruniyga mehri kuchli bo'lgan. U astronomiya, geometriya, va matematikaga oid 12 ta asarini shogirdi Abu Rayhon Beruniyga bag'ishlab yozgan va bu ulug' shogirdini ko'p asarlarida hurmat bilan tilga olgan. Bu risolalar 1948-yilda Haydarobodda nashr etilgan. Ibn Iroq Beruniyni Evklid geometriyasi va Ptolomeyning astronomik ta'limoti bilan ta'nishtirgan. U shogirdini nihoyatda istedodliligini ta'kidlab, Beruniy o'n sakkiz yoshligidan mustaqil astronomik kuzatish ishlari olib borganini (994-995), buning uchun maxsus astronomik asbob ham ixtiro qilganini yozib qoldirgan. Lekin u

²⁶ Jumayeva N.A. O'rta Osiyo Allomalarining Ilmiy Merosi. Buxoro, "Durdona". 2013. –B. 131.

²⁷ Беруний Абу Райхон. Хиндистон, Т. Фан, 1965. –Б. 73.

yigirma ikki yoshida faqat Jayhunning (Amudaryo)ning chap qirg'og'ida xorazm shahridan janubda joylashgan qandaydir bir qishloq (Bushkotir) uchun eng uzoq va eng yuqori ekliptika nuqtasini va azimutsiz ekliptikani aniqlashga muyassar bo'lgan xolos.²⁸ U dastlabki kichik hajmdagi asarlarini o'sha yerda yozgan. Sayyoralarining holatiga qarab kishilarning umrini bashorat qilish mumkin emasligi aytilgan risola – “Aldamchilik sa'nati” yani “Yulduzlar hukmidan ogohlantirish kitobi” shular jumlasidandir. VIII- IX asrlarda arablarga qarshi harakat tarixiga doir “Mubayilar va Karmatlar haqida xabarlar” risolasini yozgan.

Bu davrda Xorazm zodagonlari o'rtasidagi to'xtovsiz taxt talashlari olimning o'z kuzatishlarini davom ettirishga imkon bermadi. 994-995 yillari Xorazmda muhim siyosiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Kot Urganch amiri Ma'mun I (995-997) tomonidan bosib olinadi. Shaharda hukmronlik qilayotgan .Afrig'iylar sulolasi tugatiladi. taxtdan tushurilgan amir xizmatida bo'lgan Beruniy hayoti ham xavf ostida qoladi. Beruniy 22 yoshda boshpana qidirib, vatanni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Olim bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubiy sharqidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashaydi. So'ng hozirgi Tehron yaqinida joylashgan qadimgi Ray shahriga boradi. Beruniy Rayda ancha og'ir hayot kechiradi. Moddiy qiyinchilikda, faqirlikda yashaydi. Beruniy (Mineralogiya asarida ham Ray shahrida yashaganligini eslatib, meni Rayda Isfahon savdogarlaridan bir do'stim bor edi, uning uyida mehmonda bo'lardim deydi.

Alloma Raydan yana Jurjonga qaytib keladi. Beruniy bu yerda o'zining ikkinchi ustozi – tabib, astranom va faylasuf Abu Sahl Iso al Masihiy bilan tanishib, undan ta'lim oladi. O'sha vaqtda Xorazm va umuman Kaspiy oldi viloyatlarida Ziyoriylar sulolasi (928-1042) hukmronlik qilib, bu sulolaning mashhur vakili Qobus ibn Vashmgir (1012-1013 yilda o'ldirilgan) yosh olimni o'z himoyasiga oladi. “Shams al Maoliy” (oily martabalar quyoshi) laqabi bilan mashhur bo'lgan bu podshohga Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini bag'ishlaydi va uning nomini asarda bir necha marta tilga olib o'tadi.

²⁸ Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан». 1968. –Б. 7.

Yoqut Hamaviy Beruniyning Jurjondagi hayoti haqida juda muhim ma'lumotlar qoldirgan. U olimning hamma qo'lyozma asarlari bilan tanishib chiqqanini hikoya qiladi. Yoqut Hamaviyning yozishicha Qobus ibn Vashmgir Beruniyga vazirlik lavozimini taklif qilgan, lekin olim bunga rozi bo'lmagan

Abu Rayhon 997 –yilda Xorazmga kelib ketganga o'xshaydi: “Biz Abdulvafo Muhammad ibn Muhammad al – Buzjoniy bilan, u Bag'dodda men esa Xorazm shahrida ekanligimda, oy tutilishini kuzatish to'g'risida shartlashgan edik; biz bu hodisani hijriy yili hisobida uch yuz sakson yettinchi yili birgalikda kuzatdik” (hijriy 387 yil 997 milod yiliga to'g'ri keladi).

Shu orada Beruniy hayotining noaniq bir sahifasi bor. Qohirada ishlaydigan fransuz sharqshunosi Jak Bualoning aytishicha, 997 yilda Beruniy Buxoroga kelgan. Taxtdan tushirilgan Jurjon hokimi Qobus ham bu yerda paydo bo'lgan va Buxoro hukmdoridan yordam so'ragan. Qobus yana Jurjon hokimi qilib tayinlangach, Beruniyni o'zi bilan olib ketgan xullas Beruniy 998 yilda yana Jurjonga ko'chib kelgan.

Bu orada Xorazmda siyosiy vaziyat yana o'zgarib, taxtni yangi hokim Abu - l Abbos Ma'mun egallagan. Abu Rayhonning sifatlarini eshitgan Abu - l Abbos Ma'mun uni darhol Xorazmga chaqirgan.

Shunday qilib Beruniy 1010-yili Abu-l Abbos Ma'mun (997-1017) tomonidan mamlakatni yangi poytaxti Urganchga keltiriladi. (Ayrim manbalarda Beruniy Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun (998 – 1009) taklifiga binoan 1004 yilda Xorazmga qaytadi)²⁹. Yoqut Hamaviyning yozishicha, Xorazmshoh Beruniyni o'z saroyiga joylashtiradi va uni olim sifatida juda izzat ikrom qiladi. Bunga Beruniy keltirgan bir hodisa misol bo'la oladi. “Xorazmshoh may ichish maqsadida xonasidan chiqdi. Hovlim ostonasiga kelib, meni chaqirib qo'yoshni buyirdi. Men uning oldiga kechikibroq chiqdim, u ot bilan darxonaga kirgan, o'zi esa otdan tushmoqchi bo'lib turgan ekan. Men yer o'pib, otdan tushmasligini iltijo qildim. U javob berdi: “Bilim – barcha mulklararo eng oily mulk sanaladi. Barcha unga intiladi uning o'zi kelmaydi – ku”

²⁹ Беруний туғилган кунининг 1000 йиллигига бағишланган тўплам. Т. «Фан».1973. –Б. 23.

So'ngra dedi: "Bunday qonunlar bo'lmaganda men seni yo'qlab kelarmidim, qaraginki mening o'zim emas nomim baland".

Ma'mun II fan va adabiyot homiysi bo'lib Urganchda ma'mun akademiyasi nomli ilmiy markaz barpo etgan edi. Bu "akademiyaga" O'rta Osiyo va umuman musulmon sharqining bir qancha olim shoir va yozuvchilarini to'plagan bo'lib, bular orasida buyuk olim Abu Ali ibn Sino, Beruniyning ustozlari Abu Sahl al Masihiy va Abu Nasr Iroq tabib Abu-l Hasan Hammor, mashhur tarixchi Miskavayx (1030-yilda vafot etgan) kabilar bor edi. Beruniy "akademiya" faoliyatida faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, u shoh Mamun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakat siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi. Mamun II saroyidagi yuksak hurmat va mavqe olimga kamyob metallar va qimmatbaho toshlar ustida eng murakkab kuzatish va tajribalar o'tkazish imkonini berdi. Bu keyinchalik Mineralogiya asarining yuzaga kelishiga zamin yaratdi³⁰

Abu-l Fazl Bayhaqiyning "Tarixi Bayhaqiy" kitobida Beruniyning bizgacha yetib kelmagan "Mashohir Xavorizm" (Xorazmning mashhur kishilari) nomli asaridan parchalar keltirgan. Bunda Beruniy Xorazmshoh Abu-l Abbos Ma'mun II ning yaxshi fazilatlarini tavsiflab, uning saroyida yetti yil xizmat qilganini hikoya qiladi. Beruniy Urganchda yashagan davrda Ibn Sino bilan yozishmalar olib borgan. Bizgacha ularning savol javoblari 18 tasi yetib kelgan. 1017-1018 yillarga kelib Urganchda yana notinchlik davri boshlanadi. Movarounnahrda Qoraxoniylar davlati barpo etiladi. Xuroson va Afg'onistonda esa Mahmud G'aznaviy (998-1030) o'z hukmronligini o'rnatadi. Xorazm ham Mahmud davlatiga qaram bo'lib qoladi va keyinchalik Mahmud tomonidan bosib olinadi.

V.V. Bartoldning ko'rsatishicha, Beruniy ham Mahmudning bosqinchilik rejalariga qarshi bo'lgan voqealarga bevosita ishtirok etgan³¹. Buni biz Abu-l Fazl Bayhaqiyning "Tarixi Bayhaqiy" asaridagi ma'lumotlardan ham bilsak bo'ladi.

³⁰ Beruniy yashagan davr // Tafakkur jurnali 2009, № 3 –B. 7.

³¹ Бартольд В.В. Сочинение, I, Туркестан в эпоху монгольского нашествия. М. 1963. –С. 337-338.

Bayhaqiy bu ma'lumotlarni Beruniyning "Xorazm tarixi" asaidan olganligini aytadi va "Avvaliga Xorazmshoh va Mahmud oralari mustahkam do'stlik ipi bilan bog'landi. Ular o'zaro shartnoma tuzishib, Xorazmga amir Sabuqteginning qizi (Mahmudning singlisi) oliyjanob Qoljani olib keladilar: qiz Abul Abbos haramida qoldi. Shundan so'ng o'zaro sovg'a va mehribonchilik maktublari ayrboshlash boshlandi. Abul Abbos har ishda amir Mahmud tarafini olar, o'zini nihoyatda hurmat va odob doirasida saqlar edi.." ³².

Yuzaki qaraganda, amir Mahmud bilan Xorazmshoh orasida munosabat do'stona edi. Lekin tez orada bu ikki hukmdor orasiga sovuqchilik tushadi. Sulton Mahmudning vaziri Ahmad ibn Hasan, xiyla ishlatib Xorazmshoh sadoqatini sinab ko'rish maqsadida go'yo sulton ijozatisiz Mahmud nomiga xutba o'qitishni va shu bilan qaramlikni tan olishni talab qildi. Beruniy bunga qarshi chiqdi va Xorazmshohga bu elchini gaplariga parvo qilmang va hech kimga aytmang deb ta'kidladi. Lekin bundan qo'rqib ketgan Xorazmshoh Abul abbos Ma'mun o'z qo'shinlarining oily lashkarboshilarini yig'di. O'zi, sarkarda va Xorazm ahli osoyishtaligini o'ylab Mahmudga xutba o'qitmoqchi bo'lganini aytdi. Bunga javoban norozilik ovozlari yangradi hatto Xorazmshohga tahdid qildilar. Beruniy Xorazmshohni joniga oro kirib biz sizlarning shunchaki sadoqatingizni sinamoqchi edik deb ommani tinchlantirdi. Ularga juda ko'plab oltin –u, kumushlar berildi. Shundan so'ng ular saroyga kelib ostona o'pdilar yig'ladilar va o'z ayblariga iqror bo'ldilar. Xorazmshoh Beruniyni huzuriga chorlab unga shunday deydi: "Ish bitmaydigan ko'rinadi, Nima qilish kerak? Endi biz Mahmuddan ajraldik, deydi u", Beruniy Xorazmshohga shunday maslahat beradi Turkiston xonlari hozirda sizdan ranjiganlar amir Mahmud bilan esa inoqlar biz xonlarni o'z tomonimizga og'dirib olishimiz lozim shundan so'ng Abul Abbos Ma'mun ishga kirishadi va xonlar bilan yaqinlashadi. Bu voqealardan biroz vaqt o'tgach Sulton Mahmud dastlab Balxda katta qo'shin to'plab, o'z nomiga xutba o'qitishni talab qildi. Xorazmshoh uchun bo'ysinishdan o'zga chora qolmadi, va Xorazm va Gurganchdan tashqari qator shaharlarda xutba o'qitishga qaror qildi. Hazoraspeda

³² Мўминов И. М. таҳрирлиги остида. Беруний ва Ижтимоий фанлар. Т. «Фан». 1973. –Б. 91.

turgan Xorazmshoh qo'shinlari darhol unga qarshi isyon qildilar. Ular poytaxtni qamal qilib Abul Abbos Ma'munning u yerdagi vaziri va amaldorlarini qatl qildilar Xorazmshohning o'zi ko'shkda yashirinib oldi lekin u bu bilan qutilib qolmadi ko'shkgga o't qo'yilib Xorazmshoh o'ldirildi³³.

Abu Rayhon Beruniy Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar qatorida Mahmudning asiri sifatida G'azna shahriga olib ketiladi va olimning hayoti tahlika ostiga qoladi. Mahmud Beruniy va uning yaqin kishisi bo'lgan Xorazmlik olim Abdussamad Avvalni qatl etish haqida farmon beradi. Lekin Mahmudning vaziri Xo'ja Hasanning o'rtaga tushishi tufayli olimning hayoti saqlab qolinadi. Beruniyning 1017-1048 yillarda G'aznada kechirgan hayoti bir tomondan, nihoyat og'ir bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo'ldi. Beruniy 13 yil Mahmudning qo'l ostida yashadi. "Mineralogiya" asarida yozishicha, Mahmud Beruniyni ba'zan haqoratlar va u bilan qo'pol muomala qilinar ekan³⁴. Beruniy "Xorazmning mashhur kishilari" va "Tahdid nihoyot al-amokin li tashih masofot al-masokin" ("Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash") asarlari shu davrda yozilgan.

1030-yilda Mahmud G'aznaviy vafot etadi. O'z o'rniga kichik o'g'li Muhammadni vorislikga tayinlagan edi. Lekin tez orada uning katta o'g'li Mas'ud (1030-1041) ukasini taxtdan ag'darib davlatni o'z qo'lga oladi. Uning davrida Beruniyning ahvoli ancha yaxshilanadi. Mas'ud astronomiyaga qiziqgan. Beruniy Mas'udga arab tilini yaxshi o'rganib olishiga yordam beradi. Mas'ud ham allomani o'z himoyasiga olgan. Shuning uchun ham Beruniy "Mas'ud Qonuni" nomli astronomiyaga oid asarini unga bag'ishlaydi.

Beruniy asarlarining qo'shimcha ro'yxatini tuzgan, XIII asrning Ikkinchi yarmida yashagan mashhur hakim va hattot G'azanfar at – Tabriziy olimning vafot etgan yilinigina emas, hatto kunini ham ko'rsatib, u 440 yil 3 rajab oyida (1048 yil 13 dekabr) 75 yoshida G'aznada vafot etdi, - deb aniq qilib yozgan. Yoqut Hamaviy esa Beruniy tarjimai holini yozib tugatar ekan, Abu

³³ WWW.Ziyonet.uz

³⁴ Беруний Абу Райхон. Минералогия, М. «Наук» 1963 –С. 29.

Rayhon hijriy 403 yil (1012-1013) keksayib vafot etdi deb ko'rsatadi . Bu sana albatta noto'g'ri, 403 yil emas, 443 yil bo'lishi mumkin. Shunda Beruniy 1051-1052- yillarda vafot etganligi kelib chiqadi.

Yoqut Hamaviy olim hayotining oxirgi daqiqalarida uning yonida bo'lgan bir kishining hikoyasini keltiradi. Bu Beruniyning yaqin kishilaridan qoziy Valvalojiy bo'lib, bunday deydi: “Men Abu Rayhon huzuriga u og'ir nafas olayotgan xirillab jon berayotgan vaqtda kirdim. U mendan meroslarni noto'g'ri bo'lishi haqida aytganlaringni takrorlab ber” deb so'radi. Men unga rahmim kelib shunday ahvoldaya dedim. U esa: “ey Valvalojiy men uchun bu masalani bilib dunyodan o'tib ketish bilmay o'tib ketishdan yaxshi emasmi? ”- dedi. Men u masalani takrorlab berishga majbur bo'ldim. U buni yodda saqladi. Keyin menga bu haqda o'ylaganlarini aytib berdi, shundan so'ng men chiqib ketdim. Ko'chaga chiqishim bilan uning uyidan yig'i ovozi eshitildi”³⁵.

Beruniy fanning hamma sohalarida samarali ijod etdi. Akademik I.Y. Krachkovskiy so'zi bilan aytganda u qiziqgan sohalardan ko'ra qiziqmagan sohalarni sanab chiqish osonroqdir.

I.2. ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIGA UMUMIY TAVSIF

Sharq manbalarida aytilishicha, Abu Rayhon yozgan kitob va risolalar qopga solinganda bir tuyalik yuk bo'lar ekan. Haqiqatdan ham shunday. U ilmiy faoliyatini deyarli 16 yoshida boshlagan. Umr bo'yi kitob yozgan, jadvallar tuzgan, tabiat va osmonni kuzatgan, boshqa tildagi asarlarni tarjima qilgan.

³⁵ Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т.: Фан 1968. – Б. 12.

XIII asr geografi Yoqut Hamaviyning yozishicha, U Marv shahridagi Jome masjidining vaqfnomasida Beruniy asarlarining 60 sahifaga mayda qilib yozilgan ro'yxatini ko'rgan. Abu Rayhon bu ro'yxatni 65 yoshida bir do'stining iltimosiga ko'ra tuzgan. Mazkur ro'yxat "Fixrist" nomi bilan mashhurdir. Unda Beruniyning 113 asari ko'rsatilgan bo'lib, har bir asar kim uchun va nima sababdan yozilgani aytib o'tilgan, va 70 ta asarning hajmi ham ko'rsatilgan³⁶.

Beruniy tuzgan ro'yxatdan ko'rinishicha, u zijga oid (jadval va kalendarlar to'g'risida) 18 asar, "shaharlarning bo'yi, eni hamda bir biridan qay tarafda ekanligi haqida" 15 ta asar, "hisob faniga oid 8 ta, "quyosh yo'llari haqida" 4 ta, "zij asboblari va ularni ishlatish haqida" 5 ta, "dumlik yulduzlar haqida" 5 ta, "zamon va vaqtlar haqida" 5 ta, "oy manzillarini tekshirish haqida" 12 ta, "yulduz hukmlari haqida" 7 ta asar yozgan. Uning qo'lida nusxasi qolmagan hamda umrining oxirgi damlarida yoza boshlab tamom qila olmagan va oqqa ko'chirilmagan kitoblari ham bo'lgan. Abu Rayhon yuqorida aytib o'tilgan ro'yxatni tuzganidan keyin yana 13 yilcha yashab, 50 ga yaqin asar yozgan. Sharqshunoslarning taxminicha, Beruniy 150 tacha asarning muallifidir. Ba'zi sharqshunoslar, u 180 tacha kitob yozgan degan fikrda. Uning hatto Bomiyon sanami to'g'risidagi hadisi, Kashmiriyadan kelgan 10 savolga javobi, Nujum ilmidan Balxda berilgan savollar haqidagi, Pushtu kamar to'g'risidagi, risolalari hazilkashlik sa'nati, oltin va kumush qoplash usuli to'g'risidagi kitoblari, she'rlar to'plami ham bo'lgan.

Yoqut Hamaviy "Mu'jam al udabo"(Adiblar qomusi) asarida shunday yozadi: "Beruniy ancha keksayganligi va munkayib qolganligiga qaramay, turli tuman ilmlar tahsiliga munkasidan ketgan, kitoblar tasnifiga sho'ng'igan ekan. U doimo ilmlar eshigini ochar...qo'li qalamdan ko'zi kitobga qarashdan, ko'ngli fikrlashdan sira bo'shamagan. Faqat yilda ikki bor Navro'z va Mehrjon (hosil yig'uv bayrami) kunlarigina tirikchiligi uchun yetarli ovqat va biroz kiyim –

³⁶ WWW.arxiv.uz

kechak tayyorlab olishgagina bo'shar ekan boshqa kunlarda esa mutolaa bilan band bo'lar ekan.

Beruniy katta bir yozuvchi va tilshunos edi. Bu ilmlar yuzasidan uning bir necha asari bor. Ularni men o'zim ko'rganman. Biri Abu Tamomning she'rlariga yozgan sharhlaridir. Uning bu sohadagi ikkinchi kitobi ham bor

Sharqshunoslarning eng so'ngi ma'lumotlariga ko'ra, Beruniy asarlari quyidagicha taqsimlanadi: Astronomiyaga oid asari—70 ta; Matematikaga oid -20 ta; Geografiya – Giodeziyaga oidi – 12 ta; Kartografiyaga oidi - 4 ta; Iqlim va ob-havoga oidi - 3 ta; Mineralogiyaga oidi - 3 ta; Falsafaga oidi - 4 ta; Fizikaga oidi – 1ta; Dorishunoslikka oidi - 2 ta; Tarix, Etnografiyaga oidi – 15 ta; Adabiyotga oid asari 28 tadir³⁷.

P. G. Bulgakovning taxminicha, Beruniy jami o'n ming qo'lyozma varaq asar yozgan. Afsuski shuncha asardan atigi 30 tasigina saqlanib qolgan xolos. Ammo "Xorazm tarixi" "iqlimlar taqsimoti" (dunyo geografiyasi) nomli asarlari yo'qolib ketgan. Ularni ko'rgan va o'qigan odamlar bo'lgan. Beruniyning "Al Xorazmiy astronomik zijidagi kamchiliklar haqida o'rnak masalalar" degan sharhlardan iborat kitobi bizgacha yetib kelmagan. Hozir bu kitobning Ibn Azra qadimiy yahudiy tiliga tarjima qilgan varintigina bor³⁸.

Beruniy asarlari orasida geografiyaga doir maxsus kitoblar anchagina; uning astronomiya va boshqa sohalarga bag'ishlangan kitoblarida ham geografik ma'lumotlar ko'p. Beruniyning uzunliklar va kengliklar, yer yuzidagi odamzod yashaydigan mamlakatlarning chegaralarini aniqlash, suratga (kartaga) tushurish, havoning sovushi va isishi sabablari to'g'risidagi asarlari ham bo'lgan.

U Ptolemey "geografiya" siga qisqacha sharh ham yozgan. "Men uning "Kitob taqosim va aqolim (iqlimlar bo'linishi kitobi) nomli o'z qo'li bilan yozgan asarini ko'rdim. U bu kitobni o'sha yili (1030 yil) yozgan ekan deb tasdiqlaydi. Yoqut Hamaviy. Bular Abu Rayhon Beruniyning yo'qolib ketgan asarlaridir³⁹.

³⁷ Hasanov. H. Sayyoh Olimlar. T. "O'zbekiston". 2012 –B. 57.

³⁸ Булгаков. П. Г. Жизнь и труды Беруни. 1972. –С. 76.

³⁹ WWW.Bilim.uz

“Osori boqiya” (“Al- osor al boqiya an al- qorun al-holiya” – Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”). taxminan 1000 yilda, Abu Rayhon Jurjonda (Kaspiy dengizining janubiy sharqidagi shahar) yashaganida yozib tamomlagan. Bu asar Abu Rayhon Beruniyning birinchi yirik asari bo’lib, Beruniy uni 27 yoshida yozgan. “Hozir ham butun sharq ilmiy adabiyotida bu kitobga teng keladigan ilmiy asar yo’qdir”—deb yozgan edi akademik I.Y. Krachkovskiy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”da Beruniy o’ziga ma’lum bo’lgan xalqlar: yunonlar, rumliklar, eroniylar, sug’diylar, xorazmliklar, harroniylar, (yulduzga topunuvchilar), qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo’lgan arablar va musulmonlarning butun yil hisoblari, turli bayramlari va mashhur kunlarining mufassal tasvirini bayon etgan.

Akademik S.P. Tolstov bu asar haqida shunday degan edi: “Bu asar Yaqin va O’rta Sharq xalqlarining birinchi navbatda, O’rta Osiyo xalqlarining xo’jalik hayoti, urf-odatları, marosimlari, e’tiqodlari haqidagi o’ziga xos bir qomusdir. “Yodgorliklar” faqat o’tgan asrning buyuk yodgorligi emas, balki hozirgi kunning ham qimmatbaho boyligidir.

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”ning arab tilidagi nusxasi birinchi marta nemis sharqshunos olimi Eduard Zaxau (1845—1930) tomonidan 1878 yili Leypsigda izohlar bilan chop etilgan. Bir yildan keyin Zaxau asarning ingliz tilidagi tarjimasini Londonda nashr etdi. Tarjimaga Beruniyning tarjimai holi va izohlar ilova qilingan. Bu bilan Zaxau “Yodgorliklar”ni o’rganishga keng yo’l ochib berdi. Zaxauni nashr etgan arabcha nusxasi va inglizcha tarjimasi XVII- XVIII asrlarda ko’chirilgan to’rtta qo’lyozma asosida amalga oshirilgan edi. Bu nusxalarning hammasi deyarni bitta qo’lyozmadan ko’chirilgan bo’lib, ularda juda ko’p tushub qolgan joylar bor.

Bu o’rinlarni to’ldirish uchun “Yodgorliklar”ning yangi nusxalarini topish zarur edi. 1912-yili asarning ikkita ancha qadimgi qo’lyozmasi topildi. Ulardan bittasi Tehrondagi rus diplomatik vakolatxonasining vakili L. Bagdanov tomonidan qo’lga kiritildi. Hozir bu qo’lyozma Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-petrburg bo’limida saqlanmoqda. Bu nusxa 1219-1220 yillarda

ko'chirilgan bo'lib "Yodgorliklar"ning eng qadimgi qo'lyozmasi hisoblanadi. Ikkinchi qo'lyozma Istanbulda topilgan va hozir Istanbul xalq kutubxonasida saqlanmoqda. Zaxau nashr etgan arabcha nusxa asosida 1943-yili "Yodgorliklar" Eron sharqshunosi Akbar Dono Sirisht Sayrafiy tomonidan fors tiliga tarjima qilindi. Nenis olimlari K. Garbers va I. Fyukk Zaxau matnining tushib qolgan o'rinlarini Istambul nusxasi asosida to'ldirilib, 1952-yili qo'shimcha nashr etdilar. K. Garbers va I. Fyukklarning qilgan nashrini 1959-yili A.B. Xolidov tomonidan rus tiliga tarjimasi bilan qo'shib nashr etildi.

"Kartografiya"(tastih as-suvar va tabtih al- quvar) 10 ta varaqdan iborat risola bo'lib, xorazmshoh Abul Abbos Mamunga bag'ishlangan. Bu risolani olimlar shartli ravishda "Kartografiya"- deb ataydilar. Ushbu asarda Beruniy tarjimai holiga taluqli qimmatli ma'lumotlar keltirilgan⁴⁰. Risolaning kirish so'zida astronomiya geografiya va Kartografiyaning amaliy ahamiyati tushuntirilgan. So'ngra mazkur risolani yozishda foydalanilgan manbalar aytib o'tilgan, yo'l-yo'lakay ularning mualliflarini tanqid qilib, ilgargi olimlarning xatolari "osmon sferasidagi yoritqichlar va suratlar yer kurasidagi shaharlar, tog'lar, dengizlar, daryolar va boshqalarni tasvirlashga erishish qoidalarini qo'llashga meni majbur etdi. Shunday tasvirlash ishini ko'zda tutgan kishi ushbu qoidalarga asoslansin va boshqa narsaga burilmasin" degan. Yana usturlab xillari, gradus to'ri, kartografik proyeksiyalar, sharni tekis qog'ozga tushurish, osmon globusini yasash to'g'risida gapirilgan. "Kartografiya"ni birinchi marta o'rgangan va 1922 yilda qisman nemischa tarjimasini qilgan olim G. Zuter hisoblanadi. Shunday qilib, "Kartografiya" 995 yilgacha yozilgan bo'lib, bu olimning bizgacha yetib kelgan asarlarining eng qadimiysidir.

"Geodeziya" ("Kitobu tahdidi nihoyat al-amokin li- tas'hih masofat al- masokin"—"Turar joylarning oralaridagi masofalarni aniqlash uchun joylarning chegaralarini belgilash haqida kitob"). Bu kitobning bittagina qo'lyozma nusxasi mavjud. Unda " 23 rajab 426" yozuvi bor; bu – 1025 yil 20 oktabr degani. Kitob shu yili yozib tugatilgan. Aslida Beruniy bu asarni 1017 yilda

⁴⁰ Беруний Абу Райхон. "Геодезия" Т. «Фан», 1982. –Б. 25.

Xorazmda yoza boshlab, Qobulda davom ettirgan, va G'aznada nihoyasiga yetkazgan. Bu yakka - yagona qo'lyozma hozir Istambulda Sulton Fotih jomesining kutubxonasida saqlanmoqda. (INV. № 3386). Ayrim tadqiqotchilar "Bu qo'lyozma Beruniy o'z qo'li bilan yozgan" desa, boshqa olimlar bu Beruniy asarining ko'chirilgan nusxasi bo'lishi kerak" demoqdalar

Akademik V.V. Bartold 1926 yili Istambulga borganida mazkur qo'lyozmani varaqlab chiqib, Amudaryoga tegishli bo'lgan sahifalaridan nusxa ko'chirgan edi. V.V. Bartold vafotidan keyin Sharqshunos S. Volin shu parchani uning arxividan olib, ruschaga tarjima qildi. va 1941-yilda birinchi bo'lib ilmiy jamoatchilikni uning mazmuni bilan tanishtirdi. 1947- yili F.Krenkov inglizcha tarjimasini chop ettirdi. 1950 - yilda Yahyo G'ulomov "Beruniy Amudaryo oqimining tarixiy gidrogeografiyasi haqida" nomli maqolasini yozdi. Toshkentlik arabshunos P. G. Bulgakov Misrda ishlagan vaqtida "Geodeziya" kitobining arabcha tekstini alohida kitob tarzida nashr ettirdi. Kitobning geografiyaga tegishli qismida u X asr dengizchisi Mafannaning Xitoyga kemalarda borganini hikoya qilgan. O'zining Xorazmda globus tayyorlaganini eslatib o'tgan Xorazm vohasining o'tmishini ham batafsil izohlab bergan.

Kitob beshta nazariy bobdan iborat bo'lib, unda ko'p masala va misollar ilova qilingan. Kitobning Ikkinchi bobida "usturlob va bo'lak asboblarni yasashda mashhur bo'lgan O'rta Osiyolik Abu Ahmud Hamid ibn Xizir Xo'jandiy ixtiro qilgan va Ray rasadxonasiga o'rnatilgan Faxri sekstanti ham batafsil tasvirlangan. Ma'lumki, Xo'jandiy 992 yildan Ray rasadxonasida ishlay boshlagan, 995- yilda o'sha yerda Beruniy bilan uchrashgan. (Xo'jandiy 1000-yilda vafot etgan). Beruniyning o'zi xo'jandiy bilan do'st bo'lgan, ilmda hamkorlik qilgan. "U Xo'jandiyni o'rganib, ishlarini targ'ib qildi. Faxri sekstantiga bag'ishlab maxsus risola ham yozdi" - deydi P. G. Bulgakov⁴¹.

Kitobning uchinchi bobida dunyo geografiyasi bayon etilgan. Kitobning beshinchi bobi joylarning geografik uzunligini aniqlash usullariga bag'ishlangan. Umuman bu kitobda taklif qilingan va amalda qo'llanilgan o'lchash

⁴¹ Булгаков. П. Г. Жизнь и труды Беруни. 1972. «Наук». –С. 47.

metodlari, asboblari o'rta asrlarda ilg'or usullar va eng maqbul asboblari bo'lgan. Beshinchi bobning oxirida ko'plab misollar keltirilgan; jumladan, Bag'dod bilan Ray, Ray bilan Jurjon, Jurjon bilan Bolxon oralig'laridagi meridian farqini aniqlash usuli, Balx va Jurjoniya shaharlarining uzunlik va kengliklariga asoslanib Omul (Chorjo'y) ning uzunlik va kengligini aniqlash usuli, Balx bilan Buxoro orasidagi masofani ularning kenglik va uzunliklariga qarab aniqlash usullari va boshqalar berilgan. Olim bir necha joylarning kenglik va uzunliklarini shu usul yordamida aniqlagan.

“Hindiston” (“Kitobi fi tahqiqi mo lil hind min maqulatin maqbulatin fil aql av marzulatin”—“ Hindlarning aqlga sig'adigan va aqlga sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi ”) ni olim 1020 yilda yoza boshlab, 1030-yil yozda tamomlagan; Kitobni o'z do'sti va ustozlari Abu Sahl Tiflisiyga bag'ishlagan. Bu kitob “Hindiston tarixi” nomi bilan mashhurdir. Beruniyning bu asari ustida 1888-yili Londonda mazkur kitobning arabcha teksti bilan inglizcha tarjimai nashr etilgan 1958 yilda Hindistonda arabcha nusxasi Ikkinchi bor nashr etildi. Ruschaga tarjimai nashr 1963-yilda, o'zbekcha tarjimai nashr esa 1965-yilda Toshkentda bosilib chiqdi. Allomaning ushbu asari muqaddima va sakson bobdan iborat.

“Beruniy – deydi Chaterji,- birinchi hindshunos olim bo'lishi bilan birga, barcha davr hindshunoslarining ham eng yirigidir. Bir tomondan o'zining har tomonlama va aniq ma'lumotlari tufayli, ikkinchi tomondan juda ham sabr – toqati va xolisligi tufayli Beruniy insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan hisoblanishi kerak.”⁴²

Beruniy bu asarda o'zi ko'rgan va aniqlagan narsalar haqida hikoya qiladi. Beruniy o'z kuzatishlari natijasida bir qancha shaharlarning kengliklarini aniqlagan. Jumladan, Lohur, Kashmir, G'azna, Qobul, Gandiamir, Dunpur, Mandakkapur, va boshqa shaharlarni uzunlik va kengliklarini aniqlagan. Olim Hindistonning Nandna qal'asida Beruniy Yer shari aylanasi o'lchagan. Hindiston siyosiy arbobi Javoharlal Neru “Hindiston Kashfi” kitobida Beruniyning mazkur

⁴² Каримов. У. Беруний -ўрта асрнинг буюк олими. Т. «Фанлар академияси» 1950. – Б. 27 .

asari xususida bunday degan: “Beruniy yunon falsafasini o’rgandi Hind falsafasini mutolaa qilmoq uchun sanskrit tilini o’rgana boshladi. Beruniy hind va yunon falsafasini solishtirdi ulardagi mavjud umumiylikni ko’rib hayratda qoldi. Orani xudbinlik kayfiyatlari buzib turgan paytlarda ham Beruniy, begona odam bo’la turib, bu o’lka kishilari ahvolini to’g’ri tushuntirishga harakat qildi.”⁴³

Rus sharqshunosi akademik B. Rozen “Hindiston” kitobiga “Sharq va G’arbning qadimgi va o’rta asr kitoblari orasida tengi yo’q asar” deb baho bergan. “Hindiston” kitobini tahlil va targ’ib qilishda sharqshunoslardan A. Rasulov A. Irisov filosoflardan M. Barotov O. Shamanovlar A. Sharipov adabiyotshunoslardan A. Po’lotov S. Yo’ldoshovlarning xizmati katta.

Beruniy shunday degan: “Men Hindlarning ikki kitobini (“Sankx’ya” va “Patanjala” arab tiliga tarjima qilgan edim” “Men Evkid va Batlimusning “Almajistiy” kitobini hindlar uchun tarjima qilib, ularga astrrobiya sa’natini yozib berdim. Hindlar orasida ilm tarqatishga va ularga yo’q ilmlarni bor qilishga qiziqaman”, - deydi Abu Rayhon Beruniy “Hindiston” kitobida.

“At – Tafhim” (“at - Tafhim li avoili sinoat at- tanjim”) – “Nujum san’atining avvalini tushuntirish” ya’ni “astronomiya ilmidan boshlang’ich ma’lumotlar”) kitobi 1030 yilda yozilgan. Uning yozilgan yili sahifalarida bir necha bor: “420 hijriy qamariy, 398 yazdigard va 1341 Iskandar yili” deb ko’rsatilgan.

“At – Tafhim” - Beruniyning ikki tilda: arabcha hamda forsha yozgan yirik asarlaridan biridir. Bu kitob qolmozmalarining nusxalari ko’p. Toshkentdagi sharqshunoslik qo’lyozmalar fondida 445 va 3423 raqamli qo’lyozmalar saqlanmoqdaki, bular ehtimol eng mukammal eng birinchi nusxalardan hisoblanadi.

1934 yilda “At – Tafhim” ingliz tiliga tarjima qilindi. Fors tilidagi nusxasi Eronda nashr etildi. Tojik tilida 1973 yilda, rus tilida 1975 yilda chop etildi.

⁴³ Беруний туғилган кунининг 1000 йиллигига бағишланган тўплам. Т. «Фан», 1973. – Б. 77.

“At – Tafhim” mazmuni tahlil va targ’ib qilish ishiga astronom G’ Jalolov, matematik B.A Rozenfeld va A. Abdurahmonov, arabshunos A. Ahmedovlar faol hissa qo’shishdi.

Beruniy bu kitobni tushunish oson bo’lishi uchun uni xorazmlik Rayhona Hasan qizining iltimosiga ko’ra 530 tacha savol va javob tarzida yozganligini aytgan. Unda hisob geometriya, geografiya, astronomiya kalendar masalalari yoritilgan va juda ko’p shklari bilan izohlangan. Doira shaklidagi dunyo xaritasi ilova qilinga

“At – Tafhim” ning to’rtinchi bobi “Ma’mura va obod yerlarning chegaralari” degan sarlavha bilan berilgan bu asarni umuman Geografiya deyish mumkin. Bu bobda 35 savolga javob berilgan: “Yerning kattaligi qanday?” “Yerning Ma’mura qismida dengizlar qanday joylashgan?” “ Ekvator qayerda va uning xosiyatlari nimada?” “ Shaharning kengligi qanday?” “ Iqlimlar nima?” va boshqa shu kabi savollar qo’yilgan.

“ Qonuni Mas’udiy” (“al- Qonun al- Mas’udiy fil hay’a van nujum” Astronomiya fanida Mas’ud ismiga yozilgan qonun”). Beruniyning eng yirik asari bo’lib, muallif umrining oxirgi yillarida yozgan. Asar Sulton Mas’udga bag’ishlanganligi tufayli uni 1030 yillardan yozila boshlab 1036 yilda tugatilgan degan xulosaga kelsak bo’ladi.

Asarning qo’lyozma nusxalari 10 tacha bo’lsa kerak asar jami 12 maqoladan iborat har maqola bir necha bobga bo’lingan. 1- maqolada olamning geosentrik tuzilishi Ptolomey fikricha bayon etilgan. 2- maqolada yillar va kalendarlar, 3- maqolada trigonometriya ma’lumotlari , 4- maqolada sferik astronomiya va joylarning kengliklarini belgilash usullari, 5- maqolada joylarning uzunliklarini belgilash usullari, 6- maqolada Quyoshning harakati, 7-8- maqolada oyning harakati 9-11 maqolada yulduzlar va sayyoralar harakati bayon etilgan. 12- maqolada esa munajjimlarning yil hisobi tahlil qilingan. Bu asarda Beruniy 603 joyning geografik kordinatalari berilgan.

Maskovalik astronom U. Sodiqov, toshkentlik astronom G' Jalolov kartograf M. Teshaboyev va geodeziyachi K. Norxo'jayevlar "Qonuni Mas'udiy" asosida olib borgan tadqiqotlari natijalarini e'lon qildilar⁴⁴.

Bu asar o'rta asrlarda Sharqda Beruniyning boshqa asarlariga nisbatan ko'proq mashhur bo'lgan va olimlar tomonidan yuksak baholangan. Masalaan Yoqut Hamaviy bu asar astronomiya va matematika sohasida yozilgan barcha kitoblar izini o'chirib yubordi" deydi. Darhaqiqat, Beruniy bu kitobida astronomiya va matematika fanlari sohasida o'zidan oldingi olimlar tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlarga yakun yasash bilan birga, o'zi ham bu fanlarga juda ko'p yangiliklar kiritdi.

Beruniy hayotining so'ngi yetti yili Mas'udning o'g'li Sulton Mavdud (1041 – 1048) davriga to'g'ri keladi. Bu davrda ham olim samarali ilmiy ishlarini tinmay davom ettirdi. Beruniy o'z asarlarining ro'yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim asarini yozgan.

Bulardan biri **"Mineralogiya" "al – Jamohir fi ma'rifat al – javohir" (Javohirlarni bilish uchun ma'lumotlar to'plami")** nomli kitobi bo'lib, unda qimmatbaho minerallar va metallar haqida fikr yuritiladi. Bu asar 1048 yilda G'aznada yozilgan.

A. M. Belenskiy bu kitobni rus tiliga tarjima qildi. Toshkentlik geolog professor A. I. Islomov o'zining o'rta osiyodagi geologik bilimlar tarixiga bag'ishlangan asarida "Mineralogiya" kitobini mufassal tahlil qilib, maqola yozdilar. O. Akramxo'jayev ham "Mineralogiya" kitobini mufassal tahlil qilib, maqola yozdilar. Fan uchun shunisi muhimki, Beruniy tarixda birinchi bo'lib, qimmatbaho toshlarning solishtirma og'irligini aniqlashga kirishgan. Buning uchun oltinni andaza qilib olgan⁴⁵.

⁴⁴ Садыков. Х. У. Бируни и его работы. «Наук». 1950. –С. 23-25.

⁴⁵ WWW.Ziyouet.uz

O'sha davrda Basra (Iroq), Kashmir, Badaxshon va Xuroson chet elga silliqlangan qimmatbaho toshlar sotadigan markazlar hisoblangan. Beruniy Badaxshon haqida bunday degan: "Badaxshonning o'zida toshlar qazib chiqarilmaydi, Badaxshonda chetdan keltirilgan toshlar tarashlanadi Badaxshon bu toshlar uchun bir darvozadirki, shu yerdan boshqa mamlakatlarga tarqaladi".

"Mineralogiya" kitobida mana bu satrlarni ham o'qish mumkin: "Al habashi degan tosh mutlaqo Habashistondan olinmaydi, balki habashlarning oppoq yaltiroq tishiga o'xshatib berilgan nomdir.... Rus, Rum va Slaviyanlarning qilichlari Shoburkon qilichidan yasaladi. "Qalayi deb yuritiladigan qilich Qala mamlakatidan (Malakka yarimoroli) keltiriladi shuning uchun bu metall qalayi deb yuritiladi".

"Yoqut – javharlar orasida birinchisi nafisrog'i va eng qimmatlisidir.

Olmos. Olmosning ismi hind tilida hiro, rum tilida azmis va admantundur. Yoqub Kindiy: admantunning ma'nosi – sinmaydigan narsa, deydi. Bu toshni xususiyati shundayki, bu toshni hech narsa kesa olmaydi va sindira olmaydi.

Marvarid. Suv hayvonining jinsi bo'lib o'sishi bilan boshqa toshlardan farq qiladi (uni dengizga sho'ng'ib dengiz tagidan topadilar).

" Saydana" (" Kitob as- saydana fit- tibt" – Dorivor o'simliklar haqida kitob) bu asar yevropa tillarida " Farmakologiya" deb atalgan. Bu asar Beruniyning 1047-1048 yillarda arab tilida yozgan eng oxirgi yirik asaridir. Asarning arabcha orginali faqat bir nusxada bo'lib, o'sha nusxasi Turkiya kutubxonalaridan birida topildi⁴⁶.

Farg'onalik tabib Abubakr ibn ali Kosoniy mazkur asarni 1211 yilda Hindistonda fors tiliga tarjima qilgan, 1279 – 1280 yillarda Al G'azanfar undan nusxa ko'chirgan. Bu nusxa Buyuk Britaniyaning London muzeyida saqlanmoqda. Uning faqat muqaddima qismi nemis va turk tillariga tarjima qilingan.

⁴⁶ Садыков. Х. У. Бируни и его работы. «Наука». 1950. –С. 32.

O'zbek sharqshunosi himik va filolog Ubaydulla Karimov bu asarni mukammal ravishda rus tiliga tarjima qildi, ana shu tarjima olimning tahlili izohlari va ko'rsatgichlari bilan nashr etildi.

“Saydana” asari alifbo tartibida yozilgan bo'lib, unda dunyodagi 1116 xil dorivor o'simliklar, dorilar, mevalar hayvonlar va ularning ta'siri to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bergan. Ularning turli tillarga atalishi ko'rsatilgan

“Saydana”da 400 dan ortiq qishloq, tog', daryo, shahar va orol nomlari keltirilgan. Beruniy “Saydana”da “Surmaning eng yaxshisi Isfahondadir⁴⁷.

Banan – uning vatani Ummon ... odam bo'yi o'sadi.

Asarda choy to'g'risida ham ma'limotlar berilgan. Shunisi qiziqki, Beruniy asarlaridan keyin to XVII asrgacha biror bir Sharq xalqlari asarlarida choy haqida yozilmagan. XVII – XVIII asrlardagi manbalarda esa, Beruniyning choy haqidagi ma'lumotlari takrorlangan.

II.BOB. ABU RAYHON BERUNIYNING IJTIMOIIY QARASHLARI

II.1 YUNON OLIMLARI VA ALLOMANING FALSAFIY QARASHLARI

Navatorlik – bu ulug' olimning ajralmas xususiyatidir. U qaysi bir fan bilan shug'ullanmasin, uning ilmiy tadqiqotlari doimo fanda yangi yo'nalishlarni

⁴⁷ Ирисов, Носиров, Низомиддинов. Ўрта Осиёлик қирқ олим. Т. «Фан» 1961. –С. 54.

qidirish , yangi kashfiyotlar yaratish bilan tugallanardi. Buni mineralogiya, geodeziya, astronomiya, matematika va geologiyada yaqqol ko'rish mumkin.

Beruniy boshqa mutafakkirlardan farqli ravishda ko'p falsafiy masalalarni hal qilishda tabiatshunoslik va aniq fanlarga asoslangan. Beruniy dunyoqarashida "ikki haqiqat" nazariyasini, ya'ni fan va din haqiqatini ma'lum darajada tan olishida o'z ifodasini topgan. U "Yodgorliklar"da "Lekin bunday da'vlar ravshan dalil bo'lmasa yoki olamning avvali va boshlanishidan xabar beruvchi so'zi ishonchli, xudodan vahiy va yordam kelib so'zining aniqliligiga ko'ngli ishongan (payg'ambar) xabar bermasa qabul etilmaydi, lekin bu ilm g'oyibdan, balki bilishni umid etib bo'lmaydigan narsalardir. Bundaylar faqat folbinlik, vahiy, ilmi nujum va shunga o'xshashlar orqali bilinadi"⁴⁸.

Beruniy bu ikki tur haqiqatni bir- biriga qarama – qarshi qo'yishdan din haqiqatini fan haqiqatiga aralashtirmaslik darajasiga ko'taradi. U ayrim hind olimlarining xatolari to'g'risida shunday yozgan edi: "Bularning hammasi astronomiyada matematikaning yo'q bo'lishligi nuqsonidir, va ikkinchidan ilmiy masalalarni diniy gaplar bilan aralashtirib yuborilishidandir"⁴⁹. U shuningdek, "... o'zlari bilmagan tabiiy hodisalar sababini bilishni tangrining ilmiga havola etuvchi" larni tanqid qiladi⁵⁰.

Beruniy o'zini bilimning birinchi turiga moyilligini ta'kidlab, haqiqiy olim bilimga erishishda diniy manbalarga va usullarga tayanmasligi kerak, deydi. Beruniyning fan oldidagi eng katta xizmatlaridan biri shu bo'ldiki, u fanni diniy uydirmalardan tozalashga intilgan fanning sofliги yo'lida kurashgan. Beruniy sehrgarlik, diniy uydirmalar va munajjimlik sa'natini bir qatorga qo'yadi. Qisman u "Geodeziya" asarida munajjimlik haqida shunday deydi: "munajjimlik sa'nati umuman ojiz asosga ega bo'lganligi kabi undan olinadigan natijalar ham shunday bo'ladi. Ulardan chiquvchi xulosalar haqiqiy ilmlarga nisbatan chalkashdir".

⁴⁸ Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан». 1968, –Б. 61.

⁴⁹ Беруний Абу Райхон. Ҳиндистон Т. «Фан» 1965, –Б. 295.

⁵⁰ Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан» 1968, –Б. 306.

Beruniyning falsafiy qarashlarida namoyon bo'lgan ikki qarama – qarshi tendensiya, ya'ni bir tomondan, ya'ni bir tomondan, dunyoni yaratilganligini inkor qila olmasligi, Ikkinchi tomondan esa tabiatni mustaqil deb bilgan shuning uchun ham Beruniy falsafa sohasida deistik pozitsiyada turgan deb hisoblanadi.

Demak, xudoga faqat moddiy dunyoni yaratish va azaldan ma'lum qonunlarni berish vazifasi qoladi, xolos. Ana shu qonunlar tufayli tabiiy kuch, ya'ni tabiat harakat qiladi. Lekin keyinchalik Beruniy deizm qobig'i torligini sezadi va “Hindiston” asarida moddiy dunyoning abadiy mavjudligini tan olishning zarurligini his etadi. Bu fikrning isbotini u qur'ondan ham topadi. U “Xudoning taxti suv ostida turadi” deydi. “Oyatdagi suv so'zidan maqsad xoh suv ismi bilan atalgan va ulig'lanishi buyurilgan ma'lum jism bo'lsin, xoh suv so'zi mamlakat va shunga o'xshashlarga yo'yilgan bo'lsin baribir, shu oyatda “O'sha vaqtda tangridan keyin uning taxti va suvidan boshqa narsa yo'q edi”, degan gap tushiniladi”- deydi Beruniy.

Beruniy Aristotelning naturfilosofiyasi bilan beavasta shug'illanishi tufayli, uning o'sha davr naturfilosofiyasi bo'yicha qator masalalarni hal etishi juda qiziqarlidir. O'sha davrda tabiyatshunoslik fanida erishilgan yutuqlar uni Aristotelning naturfilosofiyasiga tanqidiy yondashishga olib keldi.

Beruniyning Aristotelni tanqidi, ayniqsa, uning Ibn Sino bilan bo'lgan yozishmasida o'z ifodasini topgan. Ularning yozishmalari asosan Aristotelning Fazo haqida” va “Fizika” asarlari bo'yicha olib borilgan⁵¹. Bu yozishmada Ibn Sino Aristotelning naturfilosofiyasini himoya qilgan. Ularning bahsi avvalambor Aristotelning naturfilosofiyasining muhim masalalaridan biri – jismlarning cheksiz bo'linishi bo'yicha bo'lgan. Beruniyning bu borada Ibn sinoga qarshi chiqqanligini ko'rgan ayrim mualliflar uni Demokrit atomizmining tarafdori degan xulosaga kelganlar. Lekin Beruniy tomonidan bu masala birmuncha murakkabroq qo'yiladi. U bo'linish muamosini hal etishda shunday yo'lni topishga harakat qiladiki, unda ikki ta'limot – atomistik va cheksiz bo'linish o'ziga xos qarama – qarshiliklarni va

⁵¹ Беруний билан Ибн Синонинг савол – жавоблари. Т. «Фан». 1950. –Б. 58

cheklanishlarni bartaraf etishga intiladi. “Nima uchun Aristotel bo’linmas bo’lakchalar bor deguvchilarni so’ziga qo’shilmadi? Holbuki, jism cheksiz bo’lishni qabul qiladi deganlar so’ziga lozim keladigan undan yomonroq edi”, Beruniy atomistik nazaryasidan farqi shundaki, Beruniy bo’shliqni inkor etsa, Demokrit bo’shliq dunyoning zaruriy ajralmas qismi deb hisoblaydi. Shunisi qiziqki, Beruniy Aristotelni tanqid qilishda dastavval tajribaga murojat etadi. Beruniyning bu yo’nalishi Aristotelning kuzatuvchanlik metodiga qarshi qaratilgan edi. Ibn Sino Beruniyning boshqa dunyolar haqidagi g’oyalari behisob dunyolarning borligini tasdiqlovchi mantiqiy xulosaga olib keladi, bu esa safsatadir degan bo’lsa, unga qarshi Beruniy “Agar sofistlar degan nom ularga shu sababdan berilsa, unda men ham bu nomni olishdan bosh tortmayman”, - deydi.

Abu Rayhon Beruniy olamning tuzilishi haqida qadimgi davr yunon faylasuflaridan Abderlik Demokrit izidan borgan. Ma’lumki Demokrit fazoni narsalar joylashadigan bo’shliq sifatida ta’riflaydi. Beruniy esa Demokritdan farqli ravishda bo’shliqni nisbiyligi haqidagi g’oyani ilgari suradi. Bu g’oya Abu Nasr Farobiyda ham bor “Bo’shliq deganda shu joyni nimadan bo’sh ekanligiga aniqlik kiritishimiz lozim. Biz biror idishni biror jismdan bo’shatsak, u joyda havo qoladi havodan bo’shatsak jismlarni tutashtiruvchi kuch qoladi. Kuchdan ham bo’shatsak, bo’sh maydon qoladiki, u ham nimadir xullas, fazo shu nimalardandir tashkil topgan, uni mutlaqo bo’shatib bo’lmaydi. Beruniy “Qonuni Mas’udiy” nomli asarida shunday deydi: Borliqning mavjudlikning asosida bo’shliq yotadi, hamma narsa bo’shliqdan boshlanib bo’shliqqa aylanadi” deb hisoblaydi.

Dunyolarning ko’pligi va xil – xilligi haqidagi g’oyalar turli xil ko’rinishlarda ifodalangan. Masalan, yunon olimi Anaksagor (mil avv. 500 – 428) fikricha, olam kichik sezilmaydigan zarracha ya’ni “urug’ (nus) lardan tashkil topgan bo’lib, o’z ichida butun bir koinotni mujasamlashtiradi. Har biro olam boshqa bir olamlar uchun kichik bir geomeriyadir⁵².

Sharq falsafasida “Avesto” kitobida bir olamdagi ko’p olamlar va ko’p olamlarning bir olamda mujasamlashuvi haqidagi fikr, “Qur’oni karim” dagi

⁵² Захидов. В. Бируни как мыслитель. «Наук».. 1950. –С. 79.

barcha olamlarning yaratuvchisi haqidagi oyatlar ham olamlarning ko'pligi va xilma – xilligi haqidagi fikrining haqiqatligining isbotidir.

Abu Rayhon Beruniy “Hindiston” asarida hindlarning olam tuzilishi haqidagi g'oyalarini tahlil etar ekan qadimgi yunon faylasufi Falesning yerning yumaloqligi haqidagi faraziga tayanib hind astronomlari ham yerni yumaloq shar shaklida deb e'tirof etganligini ta'kidlab, yer sharining bir tomoni quruqlik va ikkinchi tomoni suv bilan qoplangandir degan fikriga shubha bildiradi va mazkur holatning tabiiy qonuniyatlarga mos kelmasligini ta'kidlab okeanning o'rtasida biz hali bilmagan yirik materikning mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrni o'rta tashlagan bu hozirgi Amerika materigi joylashgan qit'aning mavjud bo'lishi mumkinligiga ishoradir. Beruniy “Mas'ud Qonuni” asarida qadimgi yunon olimlarining harakatsiz yulduzlar osmoni degan iborasini tahlil qilib, bu yulduzlarni yerdan nihoyatda uzoqligi sababli, ular orasidagi masofalarning o'zgarishi bizga sezilmaganligi uchun shunday deyiladi, aslida, yulduzlar ham o'zlariga xos harakatdadir. Bizdan nihoyatda uzoqda joylashgan yoritqichlarning o'zaro harakati bizga sezilmaydi. Sayyoralar va Oy esa Quyoshdan chiquvchi yorug'lik nuri ta'sirida bizga ko'rinadi, ular o'zlaridan nur chiqarmaydi, yulduzlar esa Quyosh singari nur chiqaradi, yulduzlarning kattaligi Quyosh singari, hatto undan ham katta bo'lishi mumkin, - deb ta'kidlaydi Beruniy. Yulduzlar quyoshga nisbatan juda uzoqda joylashganligi sababli bizga kichik bo'lib ko'rinadi. Ularning atrofida ham yorug'lik sochmaydigan sayyoralar bo'lishi mumkin, deb yozadi alloma.

Beruniyning Haqiqat to'g'risidagi falsafiy qarashlari. Kishilarning haqiqiy bilimlarni egallash uchun qilgan harakatlari, olim fikricha, ularning tabiiy xususiyatlarini tashkil etadi. Ular o'zlarining amaliy faoliyatida tabiatning hozirga qadar oshkor etilmagan, inson tomonidan bilvosta yoki bevosita bilib olinmagan hodisalarini idrok etishga intiladilar. Lekin bundan insonning tabiat hodisalari sirlarini bilish mustaqil ahamiyatga ega degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Bilishdan maqsad: kishilarning amaliy faoliyatida ulardan, ya'ni qo'lga kiritilgan bilimlardan imkoniyati boricha foydalana olishdir. Beruniy ilmiy tadqiqot metod

va shakllarini tark etuvchi alximiklar hamda astrologlar fikriga qarshi turdi. Va uni o'z ilmiy ijodi orqali qoraladi. Uning fikricha, "... agar fanga asoslanib bo'lmasa, undan voz kechish lozim bo'lar edi"⁵³. Lekin ilmiy g'oyalar, bilimlar aniq muayyan bir tarixiy davrda inson amaliy faoliyatidan o'rin egallanmagan taqdirda ham undan yuz o'girish yaramaydi. Olim haqiqat chegarasini aniqlar ekan, uni yolg'on – yashiqlardan, isbotsiz dalil va hukmlardan farq qilishni talab qiladi. Tadqiqotchining muqaddas burchi – bu tabiat hodisalarining mohiyatini, ularning sabablarini ochib berishdir. Lekin ilmiy faoliyat bu bilan chegaralanmaydi. U haqiqatni buzib, soxtalashtirib ko'rsatuvchilarni, kishilar ongiga noto'g'ri va chalkash g'oya va xabarlar urug'ini sepuvchilarni fosh qilishi, o'rinsiz rivoyatlar sababini ko'rsatib berishi hamda ulardan aniq xulosalar chiqara bilishi lozim bo'ladi. Beruniy ilmiy bilishga to'sqinlik qiluvchi noto'g'ri fikr, va rivoyatlarning obyektiv hamda subyektiv tomonlarini ko'rsatib o'tadi.

Beruniy hindlarning qadimiy tili sanskritni qunt bilan o'rgana boshladi. bu unga qadimiy hind falsafasini to'liq o'zlashtirishga katta yordam berdi. Olim Kapilaning "Sankx'ya" nomli falsafiy tizimini, "Patanjali"ni Braxmaguptaning "Paulisisidxanta" va "Braxmasidxanta"sini arab tiliga tarjima qilgan. U o'zining "Hindiston" nomli asarini yozayotgan Evklid va Ptolemeyning falsafiy asarlarini sanskrit tiliga tarjima qilayotgan edi.

Abu Rayhon Beruniy qadimgi hind materialistik maktabi hisoblangan Chorvaka – Lakayatani chuqur o'rganib, uni o'z davrining naqadar izchil va haqqoniy ta'limot ekanini o'zining "Hindiston" asarida bayon etadi. Bu falsafiy maktab asoschilaridan biri donishmand Brixaspati hisoblanadi. Bu falsafiy maktab namoyondalari dunyoning asosida to'rtta moddiy element (Bxutta) yotadi, moddiy dunyo va inson anashu to'rt elementdan tashkil topgan. Uni biz sezgilarimiz orqali qabul qilamiz⁵⁴ - degan ta'limotni ilgari surdilar. Chorvaka – Lakayatachilar moddiy olamning voqeligini va uning hech qanday oily ruh tomonidan yaratilmaganligini e'tirof etishgan ular faqat biz ko'rib turgan olam mavjud

⁵³ Захидов, В. Бируни как мыслитель. М. «Наука». 1950. –С. 82.

⁵⁴ Беруний Абу Райхон. Хиндистон. Т.: «Фан». 1965. – Б. 111.

deyishgan. Ular shuningdek, “Ong 4 ta elementdan: yer, suv, olov va havodan tashkil topgan bilish manbai esa sezgi a’zolarimizdir”, - deyishgan. Chorvaka – Lakayatachilar “Jon to’rtta elementdan paydo bo’ladi, to’rtta elementning parchalanishi ya’ni insonning vafoti bilan jon ham birga yo’q bo’ladi. tanadan alohida mustaqil jon bo’lmaydi. Chorvaka – Lakayatachilar inson u dunyo ya’ni jannatdagi “Lazzat” o’rniga voqe dunyodan o’z baxt – saodatini izlamog’i lozim, - deydilar.

Beruniy ham hind materialistlari singari tashqi olamning asosini moddiy borliq tashkil etganligini tan oladi. U Ibn Sino bilan bo’lgan munozarasida barcha narsalarning asosida to’rtta element, ya’ni suv, olov, havo, va yer yotishini hamda dunyoni bilish jarayonida charvaklar singari olam haqidagi bilimlarimizning manbaini sezgi a’zolarimiz va u orqali qabul qilingan hissiy bilimimiz tashkil etadi deb ta’kidlagan. Beruniy bu borada o’z fikrini davom ettirib: “Agar sezgi a’zolarimiz bo’lmaganda olam haqida bilimga ega bo’lmagan bo’lardik”.

Beruniy qadimgi hind falsafiy maktablaridan yana biri Sankx’ya maktabining ta’limotini ham ko’rib chiqadi. Sankx’ya maktabi dualistik ta’limotni ilgari surgan chunki Sankx’yachilar dunyoning asosida ikki substansiya – moddiy substansiya – prakriti (materiya) bilan birga ruh (prusha) yotadi deyishgan. Ular “Dunyo moddiy, abadiy va cheksiz harakatda, uning boshi va oxiri ham yo’q. dunyo hech kim tomonidan yaratilmagan, demak uning yaratuvchisi ham bo’lmagan” – degan fikrni ilgari surishgan bo’lsa, Beruniy o’zining “Hindiston” asarida Sankx’ya falsafiy maktabi haqida: “Sankx’ya maktabining asoschisi Kapila fikricha dunyo yaratilmagan, o’zi taraqqiy qilib kelgan. Har bir inson dunyoda qiynoq – azobdan xalos bo’lishga intilishi kerak⁵⁵”, - deydi.

Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida quyidagi so’zlarni keltirgan: “Olam azaliy... falak cheksiz bo’shliqga joylashgan”⁵⁶. Shuningdek Beruniy harakatni materiydan ajralmas deb tushungan. Materiyasiz

⁵⁵ Ирисов. А. Беруний ва Ҳиндистон, Т.: «Фан». 1963. –Б 18.

⁵⁶ Беруний Абу Райҳон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т.: «Фан». 1968. –Б. 52.

harakat, harakatsiz materiya bo'lmaydi, "...Hamma harakatlar materiyadan kelib chiqadi⁵⁷, - deydi Beruniy. Sankx'yachilar "Sankx'ya Karika" asarida shunday yozganlar: "Tabiat pastdan yuqoriga qarab rivojlanishda uzluksiz davom etadi. Yo'q narsadan hech narsa paydo bo'lmaydi. Sabab va oqibat o'rtasida chuqur bog'lanish bor. Agar shunday bo'lmaganida har daqiqada turli voqea hodisalar sodir bo'lishi mumkin edi. Sababsiz oqibat bo'lmaydi. Ammo sabab va oqibatlarning sababchisi sababsizdir", - deyishgan.

Beruniyning falsafiy qarashlarida ham yuqoridagi falsafiy maktablarning ta'siri beqiyos bo'lgan. Kal'kutta universitetining professori S.K.Chaterji Beruniyga bag'ishlangan "Al Beruniy va Sanskrit tili" nomli risolasida: "Eramizning XI asr 30 – 40- yillarida bizga ma'lum bo'lishicha, madaniyat olmda hind, musulmon va yunon madaniy merosini bir xilda chuqur, har tomonlama bilgan faqatgina bir kishi bo'lgan, u ham bo'lsa Beruniy edi.- deydi.

Beruniyning qadimgi hind madaniyati va ilm – faniga qo'shgan buyuk hissasidan faxrlangan hindistonlik olim Hamid Rizo o'zining "Hindistonning madaniy roli" asarida shunday degan edi: "Hind madaniyatining chigal muamolarini biror bir o'rta asr yoki hozirgi zamon muallifi Abu Rayhon Beruniydek muaffaqiyatli ravishda tushunib yetmagan. Uning "Hindiston" asari qadimgi hind madaniyati va fanining mumtoz namunasi bo'lib qoladi".

II.2. BERUNIY ASARLARIDA SHAXS VA JAMIYAT MUAMOLARINING YORITILISHI

Beruniyning shaxs va jamiyat haqidagi qarashlari g'oyat xilma-xil va juda qimmatli hisoblanadi. Beruniyning ijtimoiy fikrlarining qimmatli tomoni shundaki, u xuddi hozirgi fuqarolik jamiyati g'oyalariga yaqin bo'lgan o'z g'oyalarini ilgari

57 WWW.arxiv.uz

suradi. Beruniyning bu qarashlari sharqona demokratiya prinsiplariga juda o'xshashdir.

Beruniy ijtimoiy qarashlarining yana bir qiziqarli tomoni shundaki, u dastavval ensklopedist olim sifatida ilmiy tadqiqot metodini ishlab chiqishga intilgan. Ana shu metodning asosiy xususiyati o'rganilayotgan hodisalarga tajribaviy, ratsionalistik yondashish bo'lib, uning eng muhim talabi – og'ishmay haqiqatga intilishdan iborat edi.

Abu Rayhon Beruniy o'z ijtimoiy qarashlari aks ettirilgan maxsus asar qoldirmagan. Ammo, shunga qaramay, olimning ko'pgina qomusiy asarlarida faqatgina qimmatli tarixiy ma'lumotlar keltirilmagan, balki muallif ishning borishiga qarab u yoki bu ijtimoiy masalalar bo'yicha o'zining nuqtayi nazarini e'tirof etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishga harakat qilgan. Bu uning ijtimoiy qarashlari to'g'risida xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Beruniy ilmiy faoliyatining dastlabki davridanoq ijtimoiy – tarixiy masalalarni zo'r qiziqish bilan o'rgana boshladi. Masalan “al- osor al- boqiya” asaridan ilgari, Beruniyning o'zi e'tirof etishicha, “ Oq kiyimliklar ” va qarmatiylar xabarlar haqida kitob” nomli asarlarini yozgan. Mazkur asar o'rta asr sharqida eng ilg'or, taraqqiyparvar ijtimoiy harakatlardan biri bo'lgan qarmatiylarga bag'ishlangan. Beruniy shuningdek, xorazm tarixiga oid maxsus asar yaratgan. Bayhaqiy undan parcha ham keltirgan. Afsuski, uning tarixiy - ijtimoiy masalalarga oid maxsus bu va boshqa asarlari bizgacha yetib kelmagan. Lekin ularning tematikasining o'ziyoq Beruniyning qiziqish doirasini ifoda etadi. Tadqiqotlar natijasida tarixchilar shuni aniqlashdiki, Abu Rayhon Beruniy o'z davrining yirik siyosiy arbobi ham bo'lgan⁵⁸.

To'g'ri, Beruniy Farobiy kabi o'zining ijtimoiy qarashlari bo'yicha bir butun yaxlit ijtimoiy ta'limot yaratmagan. Biroq uning fikr mulohazalari va umumlashmalari shuning uchun ham qimmatli, olimning fikrlari, bir tomondan, O'rta Osiyo, qadimgi yunon va hind mutafakkirlarining ilg'or ananalarini ijodiy rivojlantirgan bo'lsa, Ikkinchi tomondan, yetukligi va tafakkur doirasining

⁵⁸ Мўминов И. М. таҳрирлиги остида. Беруний ва Ижтимоий фанлар. Т. «Фан». 1973. –Б. 70.

kengligidan dalolat beradi. Garchand qur'ondan misollar keltirgan bo'lsa ham Beruniy fikrlarining mazmuni tarixiy xolislik va aniqlikka asoslangan. Davrning o'ziga xos xususiyati, o'sha davrdagi ijtimoiy shart – sharoit dinni ijtimoiy hayotning turli sohasiga kirishiga, diniy aqidalarga rioya qilishga majbur qildi.

Beruniy tomonidan “sabablarning sababi” – inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasining qo'yilishi diqqatga sazovordir, “Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bu bashariyatning boshlanishidir. Kitob ahllari bo'lmish yahudiylar, xristianlar, otashparastlar va boshqa xalqlar orasida bashariyatning boshlanishi va uning tarix boshi qilib olinishi xususida shunday ixtiloflar borki, tarixlar haqida bu kabi xilma- xillik bo'lishi mumkin emas ⁵⁹. Beruniy inson va kishilik jamiyati xudo tomonidan yaratilgan degan afsonani chuqur tahlil qilib, quyidagi xulosaga keladi: “Yaratilishning boshlanishi va o'tmish asrlar ahvoli orqali bilinadigan har bir narsa uydirma gaplar va afsonalar bilan qorishgandir, chunki bu ishlar juda uzoqda qolib biz bilan ular orasida ko'p zamon o'tib ketgan”⁶⁰. Bu yerda Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo'lishi haqida ratsionalizm pozitsiyasida turganini ko'ramiz. U bu voqealar sodir bo'lgan davr noma'lum, bu haqda olim ega bo'lgan ma'lumotlar mazkur savolni yechishga yetarli emas deb biladi; bunday pozitsiyada turishning o'zi Beruniyning bu masalaga tabiiy ravishda yondashganligidan dalolat beradi. Ana shu nuqtai nazardan u payg'ambarlar va muqaddas kitoblarda inson qanday yaratilganligi to'g'risidagi rivoyatlarni rad etgan. Olamning mavjudligi mavzusiga kelganda Beruniy ehtimol u bir necha ming million yillardan beri mavjud bo'lgandir, degan taxminlarni aytgan⁶¹.

Garchand Beruniy insonni paydo bo'lishi masalasida idealistik pozitsiyada turgan bo'lsa ham (ya'ni insonning yaratilganligini e'tirof etsa ham) biroq uning keying hayotini ta'riflashda deistik nuqtai nazardan yondashadi, ya'ni ilohiy aralashish ko'magiga deyarli intilmasdi.

⁵⁹ Мўминов И. М. тахрирлиги остида. Беруний ва Ижтимоий фанлар. Т. «Фан», 1973. –Б. 71.

⁶⁰ Абу Райхон. Беруний Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан». 1968 –Б. 50.

⁶¹ Ўша жойда.

Beruniy insonlar o'rtasidagi tafovut borligi haqida gapirar ekan, u faqat tashqi farqlar to'g'risida fikr yuritgan. Lekin kishilarning ichki tuzilishi va tashkil topishi, uning fikricha, barchada umumiydir. Ana shu nuqtai nazardan u inson turli ajdodlardan paydo bo'lgan degan ehtimolni butunlay rad etdi. U inson bilan maymun o'rtasida o'xshashlik borligini aytgan: “ Ular a'zolarining o'xshashligi bilan, tashqi ko'rinishlari ham o'xshab ketadi”⁶².

Inson Beruniy fikricha, hayvondan aql bilan farq qiladi. Lekin mutafakkir insonda hayvondan tubdan farq qiladigan bu xususiyat qanday paydo bo'lganligini tabiiy yo'l bilan tushuntirmay, xudoga murojaat qilib, insonni xudo azaldan shunday yaratgan degan. Biroq shunga qaramay, Beruniy moddiy omillar va tabiiy qonuniyatga tayanishga intilgan holda insonning ijtimoiy turmushi haqida qator qimmatli fikrlarni keltiradi.

U insonning jismoniy tuzilishi va butun hayotini aniqlashda geografik omilning roli haqida ajoyib fikrlarni aytgan:

Odamlar tuzilishlarining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas balki tuproq, suv, havo va yer (odam yashaydigan joy)larning turlichaligidan hamdir⁶³. Beruniy geografik omilning rolini tahlil qilishni davom ettirib, hatto tillarning turlichaligi ham geografik sharoitlarga bog'liq deb qaradi. “Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir biridan uzoq turishi”⁶⁴, degan. Beruniy bu o'rinda tillar va ularning rang – barangligi xudo tomonidan yaratilgan degan turli ilohiy uydirmalarni uloqtirib tashladi.

Beruniyning buyukligi shundaki, u jamiyat yuzaga kelishi asosida kishilarning moddiy ehtiyojini ko'ra oldi. “Inson yalang'ochligi va madorsizligi tufayli, himoya qiluvchi tayanchlari bo'lmaganligi sababli boshqalar tomonidan musibat chekardi. Uning ehtiyojini qondira oladigan, talabini himoya qiladigan doimiy zaruratni his etardi”⁶⁵. “Ehtiyojlar turli tuman va son sanoqsizdir. Faqat

⁶² Абу Райҳан Муҳаммед ибн Аҳмад ал Бируни. Минералогия. М. 1963. –Б. 224.

⁶³ . Беруний Абу Райҳон Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан». 1968 –Б. 236.

⁶⁴ Абу Райҳан Муҳаммед ибн Аҳмад ал Бируни. Минералогия. М. 1963. –Б. 11.

⁶⁵ Ўша асар ўша бет.

ularni bir qancha kishilar birgalikda ta'minlay olishlari mumkin. Buning uchun kishilarda shahar yaratish zarurati tug'iladi". "Gap shundaki, odam ehtiyojining ko'pligi, tiyilishi kamligi, himoya qilish quroliga ega bo'lmaganligi va dushmanning ko'pligi tufayli, bir birini himoya qilish zarurligi, o'zini va boshqalarni ta'min etishga zarur bo'lgan biror ishni bajarish uchun o'z qarindosh urug'i bilan jamiyatda birlashishga majbur bo'lgan"⁶⁶, degan xulosaga keladi.

Beruniy jamiyatning haqiqiy yuzaga kelish jarayonini ta'riflab beraolmay, ijtimoiy hayot o'ziga xos "sharnoma" asosida tuzilishini e'tirof etadi. inson bu ehtiyojlarni tushunib, o'ziga o'xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini tushuna boshlaydi. Shuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabilidagi "sharnoma" tuzishga kirishadi. Faylasuf olim jamiyatning yuzaga kelishi asosida insonning eng sharaflari fazilatlarini – o'zaro yordamining zarurligini, o'zaro foyda, birgalikda ehtiyojlarni qondirish zaruriyatlarini tushungan, odamlarning umumiy manfaatlarini ko'rgan. Beruniy insonning jamiyatdagi o'rnini va vazifalarini yuqorida aytgan motivlar bilan chambarchas bog'liqlikda ko'radi. Shunga asoslanib, jamiyat kishilarining hamkorlikda faoliyatlarini o'tkazish zaruratidan kelib chiqqan deydi. Beruniy shunday deydi: "Muayyan vazifalarni bajarish zarurati bu inson faoliyatining bir umrga yashash prinsipidir" bu fikrni davom ettirib "Insonning qadr – qimmatini o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat; shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'rnini mehnat bilan belgilanadi"⁶⁷. "Inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishadi"⁶⁸, deb yozgan edi Beruniy.

Mutafakkir insonning jamiyatdagi rolini aniqlab, inson tabiatining va mijozlarining turlicha bo'lishi ularning xohishi va maqsadlari ham turlicha bo'lishiga sabab bo'ladi. Binobarin "Insonlarning maqsad va niyatlari har xil bo'lgach, san'at va hunarlari ham turlicha bo'la boshladi", ya'ni bu mehnat taqsimotiga olib keladi deydi.

⁶⁶ Беруний Абу Райхон. "Геодезия" Т. «Фан». 1966. –Б. 83.

⁶⁷ Беруний Абу Райхон. "Геодезия" Т. «Фан». 1982. –Б. 88.

⁶⁸ Абу Райхан Муҳаммед ибн Аҳмад ал Бируни. Минералогия. М. 1963. –Б. 9.

Shunisi qiziqki, Beruniy pulning kelib chiqishini dastavval mehnat taqsimoti bilan bog'liq deb bildi. "Ehtiyojning ortib borishi va uning turli vaqtda yuzaga kelishi, shuningdek, bir kishida ayni bir vaqtda ehtiyoj tug'ilmagan bir paytda, boshqa odamda bo'lishi – bularning hammasi kishilarning har xil vaqtda qiymat uchun olinadigan turli ekvevalentlar o'rniga umumiy o'lchov qidirishga olib keldi. Buning uchun odamlar shunday narsa tanladilarki, u o'zining ko'rinishi va yaltiroqligi bilan kishilarning ko'zini qamashtiradi hamda noyob bo'lib, uzoq saqlanadi"⁶⁹. Uning fikricha pullar o'zicha inson o'rtasida oltin va kumush sifatida muomalada bo'lishi maxsus qimmatga ega emas, chunki ular insonning hech qanday ehtiyojini qondira olmaydi. Faqat ayirboshlash tufayli pullar qiymatga ega bo'ladi. Pullar jamiyatda faqat umumiy o'lchov sifatida, umumiy ekvivalent sifatida ahamiyatga ega, chunki bular pulning asosiy vazifasi hisoblanadi. "Lekin bu ularning tabiati va ma'lum qonun asosida bo'lmay, balki shatli kelishuv tufayli sodir bo'lgan. Chunki oltin va kumush insonni na to'ydiradi, na chanqog'ini qondiradi, na zo'rlik va na zulm xavfidan qutqaza oladi.

Jamiyat shunday tuzilishi lozimki, u kishilarning ehtiyojini qondirishga yordam bersin, buning uchun jamiyatdagi adolatga amal qilinishini kuzatadigan hokimlik mansabi tayinlansin.

Beruniy podsholar "Erkin bo'ysunishni" qo'rquv va zo'rlik yo'li bilan bo'ysunishga aylantirganliklarini qayd etadi. Ko'pgina o'rta asr mutafakkirlari o'zlarining eng ezgu orzu umidlarini adolatli shoh zimmasiga yukladilar hukmdorlarni insof va adolatga da'vat etdilar, shu yo'l orqali mamlakatda adolat va tenglik o'rnatmoqchi, insoniyatni zulm va istibdoddan xalos etmoqchi bo'ldilar. Ana shunday yo'lni Farobiy keyinchalik Navoiy va boshqalar ham tutdilar. Ularning qatoriga Beruniy ham qo'shildi. Beruniy shunday deydi: "Davlat hokimiyati keyinchalik boshqa kishilarga nisbatan hokimiyatga loyiq kishilar qo'lida to'planib, avloddan avlodga meros bo'lib o'ta boshlaydi". Podsholik mansabi merosga aylanganini ko'rgan Beruniy insonning jamiyatda tutgan o'rnini

⁶⁹ Абу Райхан Муҳаммед ибн Аҳмад ал Бируни. "Минералогия" М. 1963. –Б. 12.

naslning qadimiyligi, avlod – ajdodlarning xizmatlari bilan belgilanishiga qarshi chiqdi. “Sharafli Er boshqalarga daxldor bo’lmagan o’zidan boshqa va o’zidagi anjomlardan boshqa hech narsaga ega emas”. Lekin u boshqa kishilarning burchini o’ziga olib, ularning tinchligi yo’lida mashaqqatlarga duchor bo’lishi, xudo bergan narsalardan qizg’anmay er kishi o’zining iltifotlilik, sabr – toqati rahmdilligi, qatilyligi hamda bir vaqtda kamtarligi bilan, bunday xususiyatlarga ega bo’lgan inson yuqori taxtga sazovor bo’lishi bilan sharaflidir. Inson bunday mansabga o’zining kelib chiqishi bilan ta’luqli bo’lmasa ham uning urug’ining qadimiyligiga qarab emas, balki ko’rsatgan xizmatlari evaziga ko’tariladi.

Beruniy jamiyatni boshqarishda jamiyat podshoga xizmat qilmay balki podsho jamiyatga xizmat qilishi kerak deb tushungan: “Idora qilish va boshqarishning mohiyati boshliq zolimlardan aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining tinchligi yo’lida o’z tinchligini yo’qotishdir. Bu ularning oilasini, ularning hayoti va mol – mulkini himoya qilish va qo’riqlash yo’lida badan charchashidan iborat⁷⁰. Beruniy hamdardlik bilan Marg’ibdagi bir shahar to’g’risida ma’lumotlar keltirib, u yerda davlatni idora qilishlik navbatma – navbat “Taniqli kishilar bilan dehqonlar o’rtasida” qo’ldan – qo’lga o’tar ekan, deydi. O’sha davrda davlat boshqarilishini shunday tushunishning o’zi nihoyatda dadil qadam edi. Podsho ayniqsa “yaratuvchanlik ongiga” ega bo’lmog’i xususan dehqonlar to’g’risida ko’proq g’am yeyishi kerak. “Podsholik dehqonchiliksiz yashay olmaydi” deydi Beruniy⁷¹. Beruniyda yana shunday fikrlar bor: odil hokimning asosiy vazifasi oily va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o’rnatishdan iboratdir.

Beruniy xalqlar o’rtasida to’g’ri munosabatlarni o’rnatishda xalaqit beradigan milliy va diniy chegaralarga qarshi chiqdi. “Dunyoda ayrim odamlar fikricha, - deydi Beruniy, - o’z yerlaridan boshqa yer yo’q, jinslaridan boshqa xalq yo’q, o’z boshliqlaridan boshqa podshohlar yo’q, o’zlaridagidan boshqa ilm yo’q va dinlaridan boshqa din yo’qdir. O’zlarini yuqori tutib, bema’ni harakat qiladilar

⁷⁰ Абу Райҳан Муҳаммед ибн Аҳмад ал Бируни. Минералогия. М. 1963. –Б. 31-32.

⁷¹ Беруний Абу Райҳон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан». 1968 –Б. 265.

va kibrlanib, bilimsiz qoladilar. O'rgangan narsalariga baxillik qilib, o'z jinslaridan bo'lsa ham noahil kishiga o'rgatmaydilar⁷².

Beruniyning jamiyat va insonga bo'lgan qarashlari asosida ajoyib fikr va mulohazalar, va albatta yuksak gumanizm g'oyasi yotadi jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni anglab olish, moddiy omillarning jamiyat va inson hayotidagi o'rmini e'tirof etishi katta rol o'ynaydi. U o'rta asr davridagi O'rta Osiyolik mutafakkirlar dunyoqarashida yorqin insonparvarlik ananalarini ishlab chiqishda katta hissa qo'shgan.

II.3. BERUNIY VA TARIX FANI

Beruniyning ijtimoiy fanlarga qiziqish doirasi ham tarix, ham filologiya ham falsafani o'z ichiga olgandi. Bu sohalarning deyarli hammasida u maxsus asarlar yozib qoldirdi. Bu sohalarning deyarli hammasida u maxsus asarlar yozib qoldirdi. Bundan tashqari, Beruniyning ko'pchiligi tabiiy fanlar bilan bog'liq bo'lgan hamma yirik asarlari uchun, yuqorida aytib o'tganimizdek, shu narsa xarakterliki, ularda tabiiy va ijtimoiy masalalar bir – biriga chambarchas bog'lanib ketgan.

Beruniyga tarixchi sifatida ikkita asosiy xususiyat xosdir:

⁷² Беруний Абу Райхон. Хиндистон Т. «Фан». 1965. –Б. 35.

-Turli xalqlarning tarixiy – ma’daniy xizmatini va ayrim shaxslar faoliyatini baholashda ularning irqiy, diniy yoki sulolalariga asoslanmay, hamma xalqlarga bir xilda xurmat bilan qarashga asoslangan haddan ziyod xolislik;

Voqea va hodisalarni ayniqsa, etnografiya sohasida, solishtirish asosida o’rganishga harakat qilish, turli xalqlar va diniy guruhlar uchun xos bo’lgan o’xshashlik, yoki ziddiyatlarni axtarib topish. Beruniydagi bu ikki xususiyat uni Yaqin Sharq va O’rta Osiyoning o’rta asrdagi bizga ma’lum bo’lgan hamma tarixchilaridan ajratib turadi.

O’zining ilk yirik asari bo’lmish “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”da Beruniy tarixchi oldiga quyidagi talabni qo’yadi: “So’ngra buni ko’pchilik kishilarning tabiatini pastkashlashtiradigan yomon axloqdan, haqiqatni ko’rishga imkon bermaydigan omillardan, ya’ni badanga singib ketgan odatlar, g’araz, raqobat, xirs – havo ketidan quvish, hokimiyat uchun kurashish, va shunga o’xshashlardan o’zini tozalagandan keyin... ularning isbot uchun keltirgan so’z va e’tiqodlarini bir – biriga solishtirish bilan belgilanadi”⁷³.

Beruniy voqea va faktlarni yoritishdagi g’arazlikka qarshi kurashar ekan, haqiqatni buzib beruvchilarni qoralab, shunday deydi: “Masalan bir kishi o’z jinsini ulug’lab yolg’on xabar tarqatadi, bundan maqsadi o’zini ko’rsatish bo’ladi, chunki uning o’zi o’sha jinsdan kelib chiqqan bo’ladi; yoki o’zini ko’rsatish maqsadida boshqa zid bir jinsni ayblab yolg’on gap tarqatadi, chunki u shu zid jins ustidan g’alaba qozongan va o’z istagiga erishgan bo’ladi... Ikkinchi bir kishi esa o’zi sevadigan bir tabaqaga minnatdorchilik bildirmoqchi bo’lib yoki yomon ko’radigan bir sinfni xafa qilmoqchi bo’lib, ular o’rtasida yolg’on xabar tarqatadi”⁷⁴.

Beruniyning tarixiy tadqiqotlarini o’z mavzusiga qarab besh turkumga bo’lish mumkin:

I). Qadimgi va ilk o’rta asr Sharqining umumiy tarixi. Shu bilan birga, ma’lum darajada qadimgi yunon tarixi. Shuni uqtirish kerakki, Beruniyning bu

⁷³ Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан» 1968. –Б. 40.

⁷⁴ Беруний Абу Райхон. Ҳиндистон, Т. «Фан» 1965. –Б. 26.

sohadagi izlanishlari uning uchun shundayin bir maqsad bo'lmay, turli xalqlardagi (yunonlar, rimliklar, qoftiylar, yahudiylar, vizantiyaliklar, eronliklar, suryoniyalar, arablar, so'g'dlar, xorazmliklar, hindlar) xronologik tarixlar tizimini aniqlash vazifasi bilan bog'liq bo'lgan. Beruniy "Mas'ud qonuni" asarining Ikkinchi bobida va "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"da Sharqning turli davlatlarida hukm surgan podshohlar, urushlar, xalqlarning boshqa yerli bosqinchilarga qarshi qo'zg'olonlari haqidagi muhim sanaalarni keltirgan, qishloq xo'jaligi ishlarining muddati soliqlar to'lash vaqti va boshqalar haqida ma'lumot berilgan. Fikrimiz isboti uchun bitta misol keltiramiz hozirgi kunga qadar Doro II zamonida eronliklar hukmronligiga qarshi misrliklar qo'zg'oloni qaysi yili bo'lganligi noma'lum edi. Beruniy "Mas'ud qonunida" bu qo'zg'olon Doro podshohligining 14- yilida, ya'ni miloddan avval 410 yili bo'lib o'tganini yozgan⁷⁵. Bu sana shartli ravishda qabul qilingan sanadan besh yil oldin bo'lib chiqdi⁷⁶;

II) Beruniy yashagan davrdagi O'rta Osiyo tarixi. Bu sohada Beruniy o'z vatani Xorazm va G'aznaviylar davlatni tarixi bilan maxsus shug'ullandi. "Giodeziya" "Mineralogiya" va "Hindiston asarlarida Xorazm va G'azna hukmdorlari haqida alohida ma'lumotlar berilgan. Bulardan ma'lum bo'lishicha Mahmudning Hindistonga qilgan bosqinchilik yurishlariga Beruniy oshkora bo'lmasada yashirin yo'llar bilan qarshi chiqqan. Bu yurishlar oqibatini u shunday tasvirlaydi:

"Mahmud hind mamlakatlarida qirg'inlar qilib, mashhur afsonalardagi singari ularning kullarini ko'kka sovurdi; nihoyat ular hamma – yoqqa sochilib, qolganlari esa juda ham nafratlanib, musulmonlardan uzoqlashishga tushdilar. Balki bu hodisalar bosib olingan mamlakatlardan ulardagi ilmlarning yo'qolishiga, Kashmir, Banoras va bularga o'xshash haligacha qo'limiz yetmaydigan joylarga qochib ketishlariga sabab bo'lgandir"⁷⁷. "Geodeziya"da Beruniy G'azna tomondan xavf tug'ilgan paytda aysh – ishrat bilan band bo'lib, hech qanday chora tadbir

⁷⁵ Беруний Абу Райхон. Ал- Қонун ал- Масъудий, Хайдаробод. 1954. –Б. 156.

⁷⁶ Всемирная история, том, II, М. 1956. –С. 199.

⁷⁷ Беруний Абу Райхон. Хиндистон Т. «Фан» 1965. –Б. 35.

ko'rmagani uchun Xorazmshohni koyiydi. "Mineralogiya"da esa Xorazmshoh lochini oyog'ini sindirib qo'ygani uchun qushboqarning ham oyog'ini sindirib haddan tashqari rahmsizlik qilgani haqida hikoya qiladi⁷⁸. Xorazm va G'aznaviylar xonadoni tarixiga bag'ishlab Beruniy ikkita maxsus asar yozgan, bittasi – "Xorazm xabarlari haqida suhbatlar" ("Xorazm tarixi"), ikkinchisi "Sulton Mahmud podshohlik kunlari tarixi va uning otasi haqida xabarlar". Ular bizgacha yetib kelmagan, lekin mashhur tarixchi Yoqut Hamaviy (1179 – 1229) bu asarlarni ko'rganligini ta'kidlaydi.

III) Sharq xalqlari fani tarixi. Beruniy o'z asarlari bilan bizning ko'z oldimizda o'rta asr fanining eng jiddiy va deyarli yagona tarixchisi sifatida gavdalandi. U qunt bilan yozma manbalarni izladi. Bir manbadagi ma'lumotni ikkinchi manbadagi ma'lumotlar bilan tanqidiy usulda solishtirdi, va qo'lga kiritgan ma'lumotlarlarini ilmiy ravishda umumlashtirdi. Beruniy asarlari tufayligina biz IX asrda yashagan samarqandlik astronom Sulaymon ibn Ismaning balxdagi faoliyatu haqida⁷⁹, xorazmlik matematik Azanhur ibn Jashnos faoliyati va Abu Bakr ar – Roziyning boshqa manbalarda bizga ma'lum bo'lmagan ustozlari Abu - l Abbos al - Eronshahriyning ilmiy faoliyati haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'la olamiz. Beruniy o'zining usturlob yasash haqidagi risolasida usturlob asbobining Yaqin Sharqdagi tarixini deyarli to'la yoritib bergan. Biz uchun yana eng muhimi shuki, Beruniy Xo'janddagi mashhur yer osti sekstantining eng batafsil va aniq tasvirini yozib qoldirgan va uning qurilish texnikasini ham aytib o'tgan. Xuddi mana shu asbob Ulug'bekning mashhur astronomik asbobi uchun namuna bo'lgan edi.

Beruniyning Hindistonda fan tarixi, ayniqsa hind astronomiyasi va matematikasi haqidagi eng boy ma'lumotlari o'rta asr tarixi uchun mislsiz va hozirgi kunimizda ham o'z qimmatini yo'qotmagan manbalardir. Beruniy hind olimlari yordami bilan bo'lsa- da, Sanskrit tilidagi manbalardan bevosta

⁷⁸ Бируни Абу Райхан Муҳаммед ибн Ахмад. Минералогия. М. 1963 –С. 193

⁷⁹ Беруний Абу Райхон. "Геодезия" Т. «Фан» 1982. –Б. 128-130, 235- 268.

foydalangan, ularning ko'pchiligi hozirgi paytda Hindistonning o'zida yo'qolib ketgan.

O'zining hindshunoslik sohasidagi ilmiy- tarixiy tadqiqotlarini "Hindiston" kitobida, "Mas'ud qonuni" kabi asarlarida bayon etgan. Ilmiy ijodi Beruniyning alohida qiziqtirgan ayrim olimlar orasida birinchi o'rinda uning taraqqiyparvar o'tmishdoshi Abu Bakr ar – Roziy bo'lib, Bereruniy uning asarlari ro'yxatini tuzgan va buni ommalashtirgan. Bu asar Beruniy Fixristi deb yuritilib, ar – Roziyning 184 asari nomini o'z ichiga olgan va bizgacha yetib kelgan.

Beruniyning ma'lumotlari O'rta Osiyo fan tarixi, ayniqsa xorazm uchun alohida ahamiyatga egadir. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"da Beruniy arab istilosiga qadar Xorazmda mustqil astronomik an'ana hukm suribgina qolmay, xorazmliklar yulduzli osmonni islomgacha bo'lgan arablarga nisbatan yaxshi bilganliklari haqida hikoya qiladi. Buning isboti sifatida bir qancha burjlarni xorazmcha nomlarini keltiradi⁸⁰;

IV) Sharq xalqlari etnografiyasi. Beruniy o'zining etnograf ekanini "Hindiston" asarida yaqqol namoyish qildi. U xind xalqining o'tmishi va o'sha zamondagi hayotning hamma tomoni bilan hech mustasnosiz qiziqdi. Sanskrit tilidagi manbalar va o'z kuzatishlariga suyangan holda, Beruniy hindlarning urf odatlari, marosim va bayramlari kastalar qonunlari, ovqat va kiyimlari, nikoh usullari, va oilaviy munosabatlari, jinoiy va merosga oid qonunlarini batafsil va har tomonlama tasvirlab berdi. Bu o'rinda Beruniy o'rta asr Sharqida qiyosiy etnografiyani yaratuvchi sifatida maydonga otildi: u hindlarning urf odatlari, marosimlari, oilaviy va boshqa munosabatlarini islomgacha bo'lgan arablar, eronliklar hamda boshqa xalqlardagi xuddi shunday urf – odat va munosabatlar bilan taqqoslaydi.

Beruniyning O'rta Osiyo xalqlari – xorazmliklar, so'g'dlar, va turklar haqidagi "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida va "Mas'ud qonuni"ning Ikkinchi kitobida keltirgan etnagrafik ma'lumotlari, uncha to'la

⁸⁰ Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан» 1968 –Б. 282.

bo'lmasligidan qat'iy nazar, biz uchun muhim qiziqish uyg'otadi, chunki u ma'lumotlarning ko'pchiligi boshqa manbalarda uchramaydi;

V) Sharqda din va "bid'atlar" tarixi. O'z "Fixristida yozishicha, Beruniy yoshligidan boshlab va butun hayoti davomida islom tomonidan qattiq ta'qib ostiga olingan diniy ta'limotlar, ayniqsa, moniychilikning man etilgan yodgorliklarini izlagan va o'rgangan. "Oq kiyimliklar" ta'limoti haqida Beruniy ma'lumotlar to'plamini yig'ib asar yozgan, lekin bu asarning "Oq kiyimliklar" ta'limoti bilan qarmatiylar ta'limotini bayon etgan qismlari bizgacha yetib kelmagan. Ammo Beruniy to'plamning oxirgi kitobida berilgan ayrim ma'lumotlarni "Yodgorliklar"da keltirgan. "Mahsud qonuni"ning Ikkinchi kitobida Beruniy yuqorida aytilgan dinlar, islomgacha bo'lgan arablar dini, Sharqda xiristian cherkovlari va yahudiy dini mazhablari haqida ma'lumot beradi. V. V. Bartoldning ko'rsatishicha, Beruniyning o'rta osiyoda islom dini marosimlari haqidagi nodir ma'lumotlari hozirgi kunda biz uchun alohida ahamiyatga egadir. Bu fikr ma'lum darajada hindlar dinlariga ham ta'luqli hisoblanadi. Bu dinlar tarixiga Beruniy "Hindiston"ning ayrim boblari va ba'zi maxsus asarlarini bag'ishlagan. ("Hindlar Vasudevasi va uning yaqin orada yuzaga chiqishi haqida risola" kabilar). Shular jumlasidandir.

Beruniy "Avesto" haqida Zardushtiylik ta'limotining asoschisi Zardusht hisoblanadi. Bu ta'limotning mazmuni va asosiy qoidalari "Avesto" kitobida yozilgan. Zardusht o'zi kim uning "Avesto" kitobi qanday kitob, mohiyati nimadan iborat? bu savollarga javob beruvchi turli asarlar mavjud, lekin Sharq manbalarining ichida eng qimmatli va mo'tabar sanalgan asarlardan "Tarixi Tabariy" va Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"i bu to'g'rida ko'pgina ma'lumotlar beradi. Bu ikkala asarning bergan ma'lumotlari bir – biridan birmuncha farq qiladi. Beruniy bu ma'lumotlarni qayerdan olganligini aytadi, ular nomini keltiradi Tabariy bo'lsa bu haqida hech narsa demaydi. Masalan Beruniy o'z asarida Zardusht "Tug'ilish kitobi"ga havola qilib, ba'zi ma'lumotlarni

keltiradi bundan bilishimizcha Zardusht “Avesto”dan tashqari yana “Tug’ilish kitobi” degan asar ham yozgan ekan, bu balki avtobiografik asar bo’lsa kerak⁸¹.

Beruniyning xabar berishicha Zardusht asli ozorbayjonlik bo’lib, keyinchalik Eron va O’rta Osiyoda istiqomat etgan Tabariyning aytishicha u Hindistonda ham bo’lgan. Beruniy Zardusht – Shri-Lankada ham bo’lgan Beruniy Zardusht ozorbayjonlik Safid Tuman degan kishining o’g’li deb, uning qayerdanligini aniq ko’rsatib ketadi. Uning shajarasi oqsuyaklardan sanalgan va Eron shohi Manuchehr oilasidan kelib chiqqan xonadonga mansub edi.

Beruniy o’zining “Tug’ilish kitobi”ga havola qilib Zardushtning Xarronda o’qiganini, u yerda Ilyos degan kishidan ta’lim olganligini xabar qiladi. Tabariyning xabariga ko’ra u payg’ambar Azizning shogirdi bo’lgan emish. Beruniy Zardusht haqida yahudiylar, rumlar, majusiylar orasida mashhur bo’lgan ma’lumotlarni keltiradi. Xususan yahudiylar uni Ilyosning shogirdi, rumliklar uni Mosullik deb biladilar. Beruniy yozadi: “Ibroniylar Zardusht Ilyos payg’ambar shogirdlaridan edi, deb da’vo qiladilar. Beruniy atoqli faylasuflar Pifagor va uning shogirdlari Kalayus va Faylaqus haqida hikoya qiladi. Kalayus Hindiston o’lkasida braxmanga ustoz bo’ladi, bundan esa braxmanlik o’z boshlanmasini oldi. Bobilda esa Faylaqus Zardusht deb nomlangan Vartush bilan uchrashadi bu esa Purushasafid yo bo’lmasa Safid Tuman deb atalardi. Fayloqus o’limidan so’ng zardusht hozirgi Shri – Lankaga yo’l oladi, u yerda tog’ g’orida bir necha yil yashaydi va Avesto kitobini yozadi.

Beruniy va Tabariy ikkovi “Avesto”ni Balx hokimi Gushtaspga hadiya sifatida keltirganligi haqida bir xil fikrda. Lekin Beruniy bu yerda Gushtaspni (Vishtasp) deydi. Zardusht majusiylar “Abisto” deb ataydigan kitob bilan payg’ambar bo’ldi. Bu kitob barcha boshqa xalqlar tillariga muxolif bir tilda yozilgan, va alohida tartibda bo’lib, maxsus bir til egalari bilib, boshqa til egalari bilmay qolmaslik uchun u tildagi harflar soni hamma tillar harflari sonidan ortiq edi.

⁸¹ Мўминов И. М. таҳрирлиги остида Беруний ва Ижтимоий фанлар. Т. «Фан». 1973 – Б.. 82.

Zardusht bu kitobni Vishtospning oldiga qo'ydi. Zardusht unga dedi: "Tangri agar bu men bilan shu podshohga yuborgan kitobing bo'lsa, misning zararini mendan qaytar!" deydi. Keyin u eritilgan misni ustidan quyishga buyiradi. Misning uni ko'ragi va qorniga quyib yuborgan edilar, ustidan oqa boshladi. va maydalanib har bir mo'yiga yumaloq mis shar bo'lib osildi. Vishtosp Zardushtning da'vatiga rozilik bildirdi, va birinchi otashparastlardan bo'ldi. Shundan keyin Zardusht o'z diniga da'vat qilib yetmish yil ba'zilarining aytishicha qirq yeti yil umr ko'radi⁸².

Beruniyning yozishicha "Avesto" dastlan Iskandar Zulqarnayn tomonidan ta'qibga uchragan edi. Doro III ning ixtiyorida bo'lgan "Aveto" kitobi o'n ikki ming molning terisiga oltin harflar biln yozilgan bo'lib, Iskandarning buyrug'iga ko'ra uning bir nusxasi o'tga yoqilgan. Beruniyning xabar berishicha "Avesto" o'ttiz nask (bob)dan iborat bo'lgan Beruniy davrigacha o'n ikki nask (bob)i saqlanib qolgan.

Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari "Avesto" va uning muallifini o'rganish uchun qimmatbaho manba hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniyning "Xorazm Tarixi" asari. Beruniyning bu asari XII asrdayoq yo'qolib ketgan. Beruniyning zamondoshi va salafi tarixchi Abul Fazl Bayhaqiy (995-1077) "Xorazm tarixini "Mashohiri Xorazm" nomi bilan ataydi. Arab olimi Yoqut Hamaviy ham Beruniyning mazkur asaridan parchalar keltirgan. Abu Fazl Bayhaqiy G'aznaviylar devonxonasida devonbegi yordamchisi lavozimida faoliyat yuritgan. Bayhaqiy o'z asarini 1056 yili, yozishga kirishgan. Abu Fazl Bayhaqiyning ushbu asari 30 jildni tashkil etgan. Bayhaqiy o'z asarini yilnoma tarzida yozgan. Bizgacha yetib kelgan jildlarida hijriy hisobdan 421 yildan 432 yilgacha bo'lgan (ya'ni 1030-1041 yillardagi) yozuvlarni uchratamiz. Abu Fazl Bayhaqiyning yozishicha, Beruniy Xorazmning Sulton Mahmud G'aznaviy tomonidan istilo etilishi va u tomondan tayinlangan hokim Xorazmshoh Oltintosh zamonidan to Sajuqiylar Xorazmni bosib olishigacha bo'lgan tarixni "Xorazm tarixi" asarida bayon etgan deydi.

⁸²Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан». 1968. –Б. 236

Bayhaqiy o'z asaridagi Xorazm to'g'risidagi bobni boshlanishida kitobxonga qarata shunday yozadi: "Mazkur tarixiy asarni yozishga kirishar ekanman o'z ko'rganlarim yoxud odamlardan eshitganlarimni bitishga ahd qildim"⁸³.

Burunroq men ustoz Abu Rayhon qalamiga mansub bir kitob ko'rgan edim. Ul zot suxandonlikda va hodisalar mohiyatini anglashda, geografiya va falsafa fanida naziri yo'q kishi edi, zamonasida unga teng keladigan kishi topilmas edi. U bir narsani o'ylasdan yozmasdi. Bu tafsilotlarni men mazkur tarixni yozishda qanchalik ehtiyotkorlik bilan ish ko'rganimni oydinlashtirish uchun yozmoqdaman".

Keyin, Bayhaqiy Abu Rayhon Beruniydan olingan ayrim parchalarni keltirish, sharhlashdan oldin "Xorazm tarixi" ning qisqacha mazmuni va unga o'z nuqtai nazarini bayon etadi. "Xorazm to'g'risida yozar ekanman, - deydi u, - Abu Rayhonga ergashib, Ma'mun xonadoni tarixidan boshlashni lozim topdim. U mazkur xonadonni inqirozga olib kelgan sabablarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, o'z boshidan kechirgan edi. Ul viloyatning Mahmud davlatiga qo'shib olinishi, marhum amirning o'sha mamlakatga borishi, uning hukmronligida ahvoli nima kechgani va boshqa voqealar hikoya qilingan. Bularning barchasi Beruniyning "Xorazm tarixi" asaridan olingan parchalar hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniyning Mazdak ta'limoti, Abu Muslim va Muqanna harakati, haqidagi ma'lumotlari ham juda qimmatli hisoblanadi. Nasl – nasabi Nisodan bo'lgan, Hamadon o'g'li Mazdak, deb yozadi Beruniy, ko'p masalalarda Zardusht ta'limotiga qarshi bordi. U hamma kishilar bab- barobar mol-mulkka ega bo'lishlari kerak, deb e'lon qildi, u va son sanoqsiz avom uning ketidan ergashdi. "Aveston"ning tafsirini men qilganman, deb da'vo qildi.

Beruniy Muqanna harakati ustida to'xtalar ekan, uning to'g'risida quyidagilarni yozdi:

"Undan keyin Muqanna nomi bilan mashhur bo'lgan Hoshim ibn Hakim Marvda Kovakimardon nomli qishloqda yuzaga keldi. U bir ko'zli bo'lganidan

⁸³ Мўминов И. М. тахрирлиги остида Беруний ва Ижтимоий фанлар. Т. «Фан» 1973.- Б. 88.

yuziga ko'k shoyidan niqob tortgan edi. Muqanna o'zining xudo ekanini da'vo qildi. So'ngra jasadga kirganini chunki jasadga kirmasligidan oldin birov unga qaray olmasligini aytdi. U Amudaryo orqali Kesh va Nasaf tomonlarga o'tdi. Xoqonga xat yozib undan yordam so'radi. "Oqkiyimliklar" va turklar uning atrofiga yig'oldilar u al – Mahdiy qo'shinini qarshiligini sindirdi va o'n to'rt yil hukmronlik qildi Nihoyat u hijriy bir yuz oltmish to'qqizinchi yili qamal qilindi va o'ldirildi.

Muqanna o'rab olingach jasadi yo'q bo'lib ketishi va tobelari uning yuqoridagi gapiga ishonishlari uchun o'zini olovga tashlagan edi. Uning kuyaman –u yo'q bo'lib ketaman degan mo'ljali muyassar bo'lmadi, balki uning jasadi tanurdan topildi. So'ngra uning kallasi olinib o'sha kunlarda Xalabda bo'lgan amir al- Mo'minin al- Mahdiyga yuborildi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak alloma Abu Rayhon Beruniy o'rta asrlardayoq Tarix fanining ilmiy metodologik asoslari bo'lgan: aniqlik, xolislik izchillik kabi prinsplarini ishlab chiqdi, va asarlar yozishda su metodlardan foylandi. U o'z o'quvchisini zeriktirmaslik maqsadida asarlarida tabiatda juda kam uchraydigan hodisalar, qiziq afsonalar va turli sarguzashtlarni ham kiritgan. Masalan besh oyoqli sigir, qorinlari bilan bir – biriga yopishgan egizaklar, tanasi bitta-yu, boshi ikkita bola, echkining odamsimon bolasi kabilar shular jumlasidandir.

XULOSA

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyatni ma'naviy yuksaltirish, taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo'shish, yoshlarni yurt tinchligi, komil inson g'oyasi ostida tarbiyalab, fuqarolik jamiyati rivojlanishida fuqaro ma'naviyatini yuksalishi

dolzarb muammo bo'lib turgan paytda, buyuk donishmand ajdodlarimizning qoldirgan ma'naviy va madaniy merosini asrashdek qomusiy burchimizni ado etib, milliy merosiga tayangan holda ish ko'rmog'imiz lozim.

Sharq uyg'onish davrida Turkiston zaminidan qator mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ular o'z asarlari bilan o'rta asrlardayoq dunyo ilmiy tafakkuriga o'zlarining munosib ulushlarini qo'sha olganlar. Ana shunday qomusiy olimlardan biri yurtimizda dovrug'i ketgan Xorazm Ma'mun Akademiyasining raisi Abu Rayhon Beruniy edi

Ulug' qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniyning ilmiy dahosi bilan yaratilgan mislsiz kashfiyotlarga to'liq baho berishning o'zi qiyin. Beruniyning 150 dan ziyod ilmiy ishlaridan bizgacha faqat 31 tasi yetib kelganiga qaramasdan, alloma qo'lyozmalarining qo'limizdagi ana shu to'liq bo'lmagan namunalari ham uning naqadar serqirra meros qoldirganidan dalolat beradi. Beruniy dunyo ilm-fanida birinchilardan bo'lib dengizlar nazariyasi va Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o'ziga xos yangi g'oyalarni taklif etdi, Yer radiusini hisoblab chiqdi, vakuum, ya'ni bo'shliq holatini izohlab berdi, Kolumb sayohatidan 500-yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit'a mavjudligi haqidagi qarashni ilgari surdi.

Minerallar tasnifi va ularning paydo bo'lish nazariyasini ishlab chiqdi, geodeziya faniga asos soldi. Shuning uchun ham XI asr butun dunyodagi tabiiy fanlar tarixchilari tomonidan "Beruniy asri" deb atalishi bejiz emas.

Olimning yana bir jihati shundan iboratki, ma'naviy jasorat sohibi ekanligini uning hayotiy tajribasidan u yozgan asarlardan ko'rsak bo'ladi. Bizga sir emaski, olim yashagan davrda, qirg'in-barot urushlar, amaldorlarning adolatsizligi ilm-fanning rivojlanishiga uning takomillashishiga salbiy ta'sir ko'rsatib turuvchi kuchlar ham topilgan. Lekin o'sha davr ilm-fan fidoyilari tomonidan bu soha rivojlantirib borilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan, kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Beruniy ilm-fanning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan buyuk ma'rifatparvar shaxs bo'lganligini ko'ramiz. Beruniy, inson ilm egallashi haqida fikr yuritarkan,

bunga mehnat orqali erishishni ta'kidlaydi. Eng muhimi mutafakkir inson kamolotida, mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasini mehnatga qarab turlarga bo'ladi. Darhaqiqat, Abu Rayhon Beruniy ilmfanning deyarli barcha sohalari, shu jumladan, tarix ilmi bilan ham maxsus shug'ullanib juda boy meros qoldirgan. Uning ilm-fan, madaniyat, din, falsafa, tabiiy fanlar, riyoziyot, ilmi hay'at, ilmi nujum, geodeziya, xaritashunoslik, tibbiyot, dorishunoslik, ma'danshunoslik va boshqa sohalarda qoldirgan ilmiy va tarixiy asarlari olim yashagan X—XI asrlarda ham, keyingi davrlarda ham O'rta va Yaqin Sharqda, ayniqsa, E. Zaxau tadqiqotlaridan so'ng G'arb ilm-fani, tarix fani rivojiga behad salmoqli va samarali ta'sir ko'rsatdi. Beruniyning „Hindiston—asarining ilmiy va manbaviy ahamiyati xususida mashhur rus sharqshunosi baron V.E. Rozen „Bu hindistonshunoslikda shunday bir ulug'vor „haykal-ki, u o'z sirasiga ko'ra yakka-yu yagona va unga teng kelishi mumkin bo'lgan boshqa bir asarni G'arb va SHarqning butun qadimgi va O'rta asr ilmiy adabiyotlarida ham uchratish mumkin emas deb yozgan edi, o'z asarida.

Beruniyning ilmiy va ijtimoiy qarashlari bo'yicha xulosa qilib aytadigan bo'lsak, alloma butun hayoti davomida faqat haqiqat uchun kurashib keldi. Asarlaridagi tarixiy voqealarni yozishda o'z ko'zi bilan ko'rganlari va asl ishonchli manbalargagina tayanib ish ko'rgani tahsinga sazovordir.

Beruniyga tarixchi sifatida ikkita asosiy xususiyat xosdir:

- Turli xalqlarning tarixiy – ma'daniy xizmatini va ayrim shaxslar faoliyatini baholashda ularning irqiy, diniy yoki sulolalariga asoslanmay, hamma xalqlarga bir xilda xurmat bilan qarashga asoslangan haddan ziyod xolislik;
- Voqea va hodisalarni ayniqsa, etnografiya sohasida, solishtirish asosida o'rganishga harakat qilish, turli xalqlar va diniy guruhlar uchun xos bo'lgan o'xshashlik, yoki ziddiyatlarni axtarib topish. Beruniydagi bu ikki xususiyat uni Yaqin Sharq va O'rta Osiyoning o'rta asrdagi bizga ma'lum bo'lgan hamma tarixchilaridan ajratib turadi.

O'zining ilk yirik asari bo'lmish “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”da Beruniy tarixchi oldiga quyidagi talabni qo'yadi: “So'ngra buni

ko'pchilik kishilarning tabiatini pastkashlashtiradigan yomon axloqdan, haqiqatni ko'rishga imkon bermaydigan omillardan, ya'ni badanga singib ketgan odatlar, g'araz, raqobat, xirs – havo ketidan quvish, hokimiyat uchun kurashish, va shunga o'xshashlardan o'zini tozalagandan keyin... ularning isbot uchun keltirgan so'z va e'tiqodlarini bir – biriga solishtirish bilan belgilanadi” Bu ulug' siymosining, jamiyatimiz milliy–ma'naviy hayotini shakllantirishda, hozirgi barkamol avlodni ilm-fanga e'tiqodli qilib o'stirishda milliy g'oyaning asosiy tamoyillariga sodoqat ruhida tarbiyalashda, olimning ilmiy merosidan foydalanish, yoshlarning ilmiy-nazariy dunyo qarashini kengaytirish uchun uning kashfiyotlarini asl mohiyatini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Olim o'z shogirdlarini ilm olishga da'vat etar ekan —Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan holatlardan, qotib qolgan urf- odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikning quli bo'lishdan ozod bo'lmog'i darkor deb ta'kidlar ekan. Olimning bunday dolzarb va ayni paytda ibratli fikrlari —ommaviy madaniyat ta'sirida shakllangan va ilmsizlikka chorlovchi buzg'unchi g'oyalardan saqlanishga imkon beradi.

Beruniy asar yozishda imkoni bo'lsa ko'z bilan ko'rgan eshitgandan afzaldir tamoiliga tayangan Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir deb ta'kidlaydi alloma. Abu Rayhon yoshligidan ilmga berilgan, fanning har bir sohasini chuqur egallashga kirishgan. “ yoshligimdanoq,- deb hikoya qiladi Beruniy,- tabiatimda bilim olishga bo'lgan ishtiyoq haddan tashqari zo'r edi. Buning uchun shu narsani hikoya qilishim kifoya: yurtimizga bir rumlik kelib qolgan edi. Men unga har xil donlar, urug'lar, mevalar, o'simliklar va boshqa narsalarni keltirib, uning tilida ya'ni yunon tilida bu narsalar qanday atalishini so'rab yozib olardim”. Bundan ko'rinishicha, Beruniy bilim ma'rifat egallashda, hatto til o'rganishda ham qo'l kelgan har bir fursatdan unumli foydalanishga harakat qilgan, natijada Beruniy juda ko'p tillarni egallaydi. Dastlab u o'sha davrda musulmon olamida ilmiy til hisoblangan arab tilini o'rganadi, fors, suryoniy, yunon-grek tillarini o'rganadi va bu tillarda bitilgan asarlardan bahramand bo'ladi, yoshi qirq beshdan oshganda

hind fani va ma'daniyatini o'rganish uchun qadimgi hind tili – sanskritni o'rganadi.

Beruniyshunos olim, Abu Rayhon Beruniy nomidagi respublika davlat mukofoti laureati professor Ubaydulla Karimovning aniqlashicha, Beruniy birgina dorishunoslikka oid “ Saydana” degan asarida dori moddalarining nomlarini o'ttiz ikk til va lahjada keltirib o'tgan.

Bu haqda, Bobur xalqaro jamoat fondi raisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Zokirjon Mashrabovga asoslanib, “Ma'naviy hayot” jurnali ma'lum qildi. Fond raisining so'zlariga ko'ra, Abu Rayhon Beruniyning qabri Afg'onistonda qarovsiz yotibdi, yon-atrofdagi ekinzorga qo'shilib ketish xavfi bor. “Tez fursat ichida uning atrofini ajratib, qabr ustiga sag'ana va maqbara qurilmasa, qabr butunlay yo'qolib ketishi mumkin”, — deydi Zokirjon Mashrabov.

Zokirjon Mashrabovning qo'shimcha qilishicha, Afg'onistonning Ishkashim manzilgohida Boborahim Mashrabning qabri xarobaga aylangan loysuvoq uy ichida qolgan, Mirzo Ulug'bekning taniqli shogirdi Ali Qushchining Istanbuldagi qabrini ham obod qilish kerak, “chunki u yuzlab qabrlar ichida qisilib yotibdi”.

“Bu ishlarning barchasiga ulgurish va amalga oshirish uchun umrning har daqiqasini g'animat bilib, olg'a intilish, izlanish kerak. Chunki vaqt oltinga teng, bugungi kun ertaga tarixga aylanadi. Tarix sahifalariga arziydigan ishlarni qila olish Bobur xalqaro jamoat fondi va ilmiy ekspeditsiyasi a'zolarining doimiy maqsadidir”, — deydi Zokirjon Mashrabov⁸⁴.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Prezident asarlari

1. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Тошкент. «Ўзбекистон», 1996.

⁸⁴ WWW. Daryo.uz

2. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. -Т. «Ўзбекистон», 1997.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -Toshkent. "O'zbekiston", 1998.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. Тошкент. «Маънавият» 2008.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikkka erishish ostonasida. –Toshkent.: "O'zbekiston", 2011.
6. Karimov I.A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar – Biz tanlagan islohotlar yo'lining tastig'idir.- Т.: "O'zbekiston", 2015.
7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxr-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir. –Toshkent. "O'zbekiston", 2015.

Asosiy adabiyotlar

8. Абдусодиқ Ирисов. Абу Райҳон Беруний Ҳикматлар
Т. « Ёш гивардиячи». 1973.
9. Беруний Абу Райҳон. “ Геодезия” Т. «Фан», 1982.
10. Беруний Абу Райҳон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар.
Т. «Фан», 1968.
11. Беруний Абу Райҳон. Қонуни Масъудий Т. «Фан», 1973.
12. Беруний Абу Райҳон. Ҳиндистон Т. «Фан», 1965.
13. Беруний ва Ижтимоий фанлар. Т. «Фан» 1973.
(Мўминов И. М. таҳрирлиги остида).
14. Беруний туғилган кунининг 1000 йиллигига бағишланган тўплам.
Т. «Фан», 1973.
15. Булгаков. П. Г. Жизнь и труды Беруни. М. «Наук». 1972.
16. Захидов. В. Бируни как мыслитель. М. «Наук». 1950.
17. Ирисов, Носиров, Низомиддинов Ўрта Осиёлик қирқ олим.
Т. «Фан»1961.
18. Маънавият юлдузлари. (Ҳайруллаев Таҳрири остида) «Халқ Меъроси»
Т.1999.
- 19.Мўминов И. М. Хоразмлик буюк энсклопедист олим. Т. «Фан» 1973.

20. Садыков. Х. У. Бируни и его работы. М. «Наук». 1950.
21. Ўзбекистон Миллий энсклопедияси Том I, Т. «энсклопедия». 2006.
22. Ғуломов. Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи.
«Фанлар академияси» 1959.
23. Hasanov.H. Sayyoh Olimlar T. “O’zbekiston”. 2012.
24. Hamidjon Homidiy. Ko’hna Sharq darg’alari. T. “Sharq” 2004.
25. History Today Jurnalı 2013, № 12.

Qo’shimcha adabiyotlar

26. Imom Al- Buxoriy Saboqlari jurnalı 2012, № 3.
27. Imom Al- Buxoriy Saboqlari jurnalı 2014, № 1.
28. Jaxon adabiyoti jurnalı 2015, № 6.
29. Tafakkur jurnalı 2009, № 3.
30. O’zbekiston Tarixi jurnalı 2013, № 4.

Internet materialları

31. WWW.arxiv.uz
32. WWW.Bilim.uz
33. WWW.Bukhara.uz
34. WWW.Mover.uz
35. WWW.Ziyonet.uz

ILOVALAR



Abu Rayhon Beruniyning Eronlik rassomlar
Ishlagan surati (XX asr o'rtalari)



O'zbek rassomi Malik Nabiyyev ishlagan
surat. Ko'pgina adabiyotlarda shu surat
qabul qilingan.



Beruniy tavalludining 1000 yilligiga
Bag'ishlab chiqarilgan markalar.



Alloma qizg'in ilmiy faoliyat ustida



Allomaning o'z ona yurti Beruniy tumanidagi haykali



Beruniyning tarixchi Shahrizuriy bergan ma'lumotlariga Asoslanib Eronda Bozorgo'yin ishlagan surati.

Afg'onistonda Abu Rayhon Beruniyning qabri butunlay yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi

Afg'onistondagi Abu Rayhon Beruniy qabri.

Foto:

“Ma'n

